BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TEZISLAR TO‘PLAMI

2025-YIL 14-OKTABR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

TEZISLAR TO‘PLAMI

2025-yil 14-oktabr

BOOK OF ABSTRACTS

OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES TO THE ASSESSMENT OF KNOWLEDGE AND SKILLS”

OCTOBER 14, 2025

Toshkent 2025

“Bilim va malakalarni baholashda nazariy va amaliy yondashuvlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislar to‘plami, (2025-yil 14-oktabr) – T.: Science and Innovation, 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Baxtiyor Rustamov, Kozim Ergashov, Mansur Suyunkulov, Feruza Ollamurodova, Dilnoza Narzullayeva, Iqboloy Sobirova, Mamirova Munisa, Asila Khaydaraliyeva

Tahrir hay’ati raisi

A. Baratov	*f-m.f.n.*

Tahrir hay’ati a’zolari

M. Ermamatov	*f-m.f.n.*
A. Sattiyev	*PhD (f-m.f. bo‘yicha)*
A. Normurodov	*PhD (f-m.f. bo‘yicha)*
Q. Amonov	*PhD (f-m.f. bo‘yicha)*

© Bilim va malakalarni baholash agentligi
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining tashkil etilganiga 30 yil to‘lishi munosabati bilan o‘tkazilayotgan ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ta’limda baholash jarayonini ilmiy yondashuvlar asosida takomillashtirish, nazariy va amaliy tajribalarni integratsiya qilish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

Zamon talablari va globallashuv sharoitida ta’lim sifatini baholash tizimining ilmiy asoslangan, shaffof va xalqaro mezonlarga mos bo‘lishi - ta’lim sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir. Shu boisdan, konferensiyada bilim va malakalarni baholashda qo‘llanilayotgan klassik va zamonaviy yondashuvlarning ilmiy jihatlari, ularning amaliyotda qo‘llanish mexanizmlari atroflicha tahlil qilinadi.

Mazkur konferensiya:

- turli mamlakatlarda ta’lim natijalarini baholash sohasida to‘plangan ilg‘or tajribalarni muhokama qilish;
- xalqaro test dasturlari asosidagi yondashuvlar bilan tanishish;
- baholash vositalarini yaratish va takomillashtirishda innovatsion metodlardan foydalanish bo‘yicha ilmiy fikr almashish;
- yosh tadqiqotchilar va amaliyotchilar o‘rtasida bilim va tajriba almashuvini kuchaytirish imkonini yaratadi.

Konferensiyada O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning baholash tizimi sohasidagi yetakchi tashkilotlari, xususan, “Cambridge University Press and Assessment”, “AQA Global Assessment Services”, “Educational Testing Service”, Britaniya Kengashi, Qozog‘iston Respublikasi Milliy test markazi, shuningdek, milliy hamkor tashkilotlar ishtirok etmoqda.

Ushbu tezislar to‘plamida konferensiya ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan tezislar jamlangan bo‘lib, unda ta’limda baholashni zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida rivojlantirishga oid ilg‘or qarashlar, amaliy tavsiyalar va tajribalar o‘z ifodasini topgan.

Ushbu nashr nafaqat ta’lim sohasidagi tadqiqotchilar va amaliyotchilar, o‘quv-uslubiy mutaxassislar va baholash vositalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

M. Karimov
Bilim va malakalarni baholash agentligi direktori

FOREWORD

This international scientific-practical conference is dedicated to the 30th anniversary of the establishment of the Agency for Assessment of Knowledge and Skills under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. The event aims to improve assessment processes in education based on scientific approaches, integrate theoretical and practical experiences, and expand international cooperation in the field.

In the context of modern global challenges, the presence of a scientifically grounded, transparent, and internationally benchmarked educational assessment system is one of the key factors contributing to the sustainable development of the education sector. Therefore, the conference thoroughly analyzes the scientific aspects of both classical and modern approaches used in knowledge and skills assessment, as well as the mechanisms of their practical application.

This conference provides a platform to:

- Discuss advanced international practices in assessing educational outcomes across various countries;
- Explore approaches based on international testing programs;
- Exchange scientific views on the use of innovative methods in the development and improvement of assessment tools;
- Strengthen knowledge and experience exchange among young researchers and practitioners.

The conference is attended by leading organizations in the field of assessment systems from Uzbekistan and abroad, including Cambridge University Press and Assessment, AQA Global Assessment Services, Educational Testing Service, the British Council, the National Testing Center of the Republic of Kazakhstan, and national partner institutions.

This collection of conference abstracts brings together the contributions of participants, reflecting advanced ideas, practical recommendations, and experiences related to the development of educational assessment based on modern scientific and methodological approaches.

This publication serves as a valuable resource not only for researchers and practitioners in the education sector but also for curriculum developers and professionals involved in designing assessment tools.

M. Karimov

Director of the Agency for the Assessment of Knowledge and Competences

ПРЕДИСЛОВИЕ

Настоящая международная научно-практическая конференция приурочена к 30-летию со дня основания Агентства по оценке знаний и навыков при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан. Цель мероприятия — совершенствование процессов оценки в системе образования на основе научных подходов, интеграция теоретического и практического опыта, а также расширение международного сотрудничества в данной сфере.

В условиях современных вызовов и глобализации наличие научно обоснованной, прозрачной и соответствующей международным стандартам системы оценки качества образования является одним из ключевых факторов устойчивого развития образовательной сферы. В связи с этим на конференции подробно анализируются научные аспекты классических и современных подходов, применяемых при оценке знаний и навыков, а также механизмы их практической реализации.

Конференция предоставляет возможность:

- Обсудить передовой международный опыт в оценке результатов обучения в различных странах;
- Ознакомиться с подходами, основанными на международных тестовых программах;
- Обменяться научными мнениями по использованию инновационных методов при разработке и совершенствовании инструментов оценки;
- Укрепить обмен знаниями и опытом между молодыми исследователями и практиками.

В работе конференции принимают участие ведущие организации в области систем оценки из Узбекистана и зарубежных стран, в том числе Cambridge University Press and Assessment, AQA Global Assessment Services, Educational Testing Service, Британский Совет, Национальный центр тестирования Республики Казахстан, а также национальные партнерские организации.

В данный сборник включены тезисы, представленные участниками конференции. Они отражают передовые идеи, практические рекомендации и опыт в области развития оценки в образовании на основе современных научно-методических подходов.

Настоящее издание является ценным ресурсом не только для исследователей и практиков в области образования, но и для специалистов, занимающихся разработкой учебных материалов и оценочных инструментов.

М. Каримов

Директор Агентства по оценке знаний и навыков

VALIDITY IN ACTION: THE ROLE OF CONSTRUCT COVERAGE IN FAIR AND IMPACTFUL ASSESSMENT

Dr Darren Perrett
Cambridge Univeristy Press and Assessment

Validity remains the cornerstone of meaningful educational assessment, yet it is often misunderstood as a purely technical property of tests. In reality, validity encompasses the extent to which score interpretations are appropriate, justified, and beneficial for all stakeholders. A key dimension of this is construct coverage—the alignment between the knowledge, skills, and competences a test intends to measure and the tasks it actually includes. When constructs are underrepresented or distorted, the consequences extend far beyond measurement: learners’ opportunities, teachers’ practices, and policymakers’ decisions are all affected.

This presentation will explore the theoretical foundations of validity with a focus on construct coverage, drawing on the socio-cognitive framework and international best practice. It will highlight how balanced construct representation enhances fairness, transparency, and positive educational impact. Finally, practical implications will be considered for stakeholders engaged in reforming assessment systems, ensuring that innovation and efficiency do not come at the cost of validity.

ИННОВАЦИИ, ИССЛЕДОВАНИЯ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЕДИНОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ТЕСТИРОВАНИЯ

Ниязов Талгат Жаксыбаевич
Национальный Центр Тестирования, Казахстан

Доклад раскрывает, как ЕНТ стал платформой для внедрения инноваций и научных исследований в образовательной оценке. Рассматриваются цифровизация экзамена, использование ИИ для генерации заданий, внедрение психометрических моделей и цифровых платформ, а также международное сотрудничество с ETS, AQA и исследовательскими институтами. Модернизация ЕНТ повышает качество тестирования, объективность оценки и аналитический потенциал, создавая возможности для научных исследований и формирования компетенций XXI века у учащихся.

ITEM DIFFICULTIES IN CLASSICAL TEST THEORY AND RASCH MODEL

M.J. Ermamatov
Scientific and Educational Practical Center Under the Agency for Assessment of Knowledge and Skills

Accurately measuring student ability is a fundamental goal in educational assessment, particularly in large-scale testing where different test forms must be administered to different groups. One effective approach to ensure comparability involves using test forms that share common items, allowing for the calibration of item difficulty and the equating of test-taker ability across forms. While classical test theory (CTT) estimates item difficulty based on the proportion of correct responses, it does not account for group-level differences in ability, potentially leading to biased interpretations.

Modern test theories, such as item response theory (IRT), and specifically the Rasch model, address this limitation by placing both item difficulty and person ability on a common scale. The Rasch model has been successfully applied in various contexts, including language assessments, computer-adaptive testing, and multi-stage tests, where accurate and fair measurement is essential. Its application allows for enhanced precision and objectivity, particularly when using commonitem or common-person designs.

Despite the theoretical appeal of a single test form, practical challenges—such as content familiarity, test security, and the need to address a broad range of abilities—often necessitate the use of multiple forms. This introduces the risk of test inequivalence, as variations in form difficulty may affect assessment outcomes. Therefore, robust calibration and equating methods are critical for maintaining fairness and validity in the testing process.

This study explores these issues through a detailed analysis of test forms used in listening comprehension assessments, calibrated using the Rasch model and analyzed via the dexter software in R. The research also draws on studies involving languages and science subjects to demonstrate the broader applicability of these methods. By aligning test-taker ability and item difficulty across different forms, the study underscores the value of using modern psychometric models to enhance the accuracy and fairness of educational measurement.

IMPROVING ASSESSMENT QUALITY WITH TECHNOLOGY-ENABLED AUTHORING AND QUALITY ASSURANCE

Shaun Crowley
AQA Global Assessment Services

To ensure validity and reliability of a test it is essential that assessment developers employ robust quality assurance measures. However in practice, applying rigorous quality checks throughout the assessment design cycle can be difficult and inefficient when adopting

traditional authoring methods. And yet the need for more rigorous QA is increased for organisations looking to modernise their assessments, eg, moving from knowledge based to competency/skills based assessments or moving from paper to on-screen assessments.

This is why specialist authoring software is increasingly being used to develop high-stakes exams. It allows for part of the authoring process to be managed remotely to improve efficiency and reduce cost, authoring workflows to be automated, the opportunity to integrate more focused quality checks without increasing production time, and the ability to classify items with more granular 'metadata' for improved test construction.

In this presentation, Shaun Crowley and Vali Huseyn will introduce how the 'GradeMaker' software is being used by two assessment providers; AQA, the UK's largest assessment provider, and the National Testing Center under the Ministry of Science and Higher Education of Kazakhstan, who are about to embark on an implementation project.

The presentation will summarise some of the key benefits of digitising the authoring process. These not only include improved QA, but also improvements in the item banking process and easier transition to e-assessment. The presentation will also consider some of the key challenges in moving to digital authoring and item banking, with recommendations for how to implement technology-enabled authoring processes.

APPROACHES TO ASSESSMENT IN STEM A LEVEL SUBJECTS

Mark Langley
Principal Education Lead, National STEM Learning Centre, University of York, United Kingdom

A Level assessment criteria, alongside the subject content (curriculum specification) has evolved considerably in the last 50 years, particularly in the STEM Subjects (principally the sciences, mathematics and computing). Ensuring equity of access to assessment of practical skills and application, as well as being able to probe deeper level of understanding has been key to the continued success of the A Level qualifications. The quality of assessment, alongside clear subject content, gives confidence to higher education and to employers of the level and depth of education of an individual.

In this short lecture we will explore the important changes over time and some of the key current aspects of effective assessment within the A Level, focussing in on the sciences and mathematics. We will identify how Assessment Objectives form essential components of the assessment planning, but also support teaching and learning within schools, to ensure students can demonstrate their own capabilities.

O‘ZBEKISTON TA’LIM KONTEKSTIDA MILLIY BAHOLASH TADQIQOTINI JORIY ETISH: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA KUTILMALAR

Abduraimov Shohrux Samad o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi

Milliy ta’lim taraqqiyotini kuzatib borish va tizimning xalqaro standartlarga mos kelishini ta’minlash, raqobatbardoshligini oshirish, ta’lim tizimimizning yutuq va kamchiliklarini hududlar va regionlar miqyosida aniqlash, mavjud resurslarini to‘g‘ri va maqsadli yo‘naltirish, hududlardagi mavjud yutuqlarimizni aniqlab, ularni yanada rivojlantirish, kamchiliklarimizni erta aniqlab, vaqtida bartaraf etish choralarini ko‘rish, tizim doirasida hududiy boshqarmalarda, maktablarda, o‘qituvchilarda va ota-onalarda ta’limga daxldorlik, hisobdorlikni oshirish, pedagoglarda muntazam malaka oshirishiga ehtiyojni paydo qilish, bugungi zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalaridan biri. Ushbu tezisda milliy baholash tadqiqoti talablarini ishlab chiqish va joriy etish borasidagi qarashlar, mazkur yo‘nalishdagi xorijiy tajribalar hamda amalda holatimiz, mavjud muammolar tahlilga tortilgan. Milliy baholash tadqiqotini joriy etishdan kutilayotgan natijalari, uning ta’lim tizimidagi o‘rni borasidagi qarashlar aks etgan.

BILIMNI BAHOLASHDA UMUMIY ELEMENTLI TEST VARIANTLARIDAN FOYDALANISH

A.B. Normurodov, M.Dj. Ermamatov
Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o‘quv amaliy markazi, 100084, Toshkent sh., Bog‘ishamol k., 12

Standartlashtirilgan test sinovlari natijalari bilan turli xil guruhlardagi sinaluvchilarning bilimlarini solishtirish, o‘quv dasturini qanday darajada o‘zlashtirganligini aniqlash, ularning yutuq va kamchilliklari haqida ma’lumotlarni olish mumkin bo‘ladi. Bilimni baholashda standartlikni ta’minlash uchun bitta standart test variantidan yoki parallel test variantlaridan foydalaniladi. Bitta standart test variantidan foydalanilganda standartlik bo‘yicha muammo bo‘lmaydi, lekin har xil test variantlaridan foydalanilganda sinaluvchilarga beriladigan variantlarnining qiyinlik darajalari bo‘yicha savollar yuzaga chiqadi. Parallel test variantlaridan foydalanish bu muammolarni qisman hal qiladi.

Bundan tashqari satandartlikni ta’minlash uchun zamonaviy test nazariyasida test ballari shkalalarini tenglashtirish orqali ham erishiladi. Test ballari shkalalarini tenglashtirish bu – har xil test variantlarini yechish orqali olingan ballarni bitta shkalaga o‘tkazish uchun amalga oshiriladigan statistik jarayondir. Buni qisqacha tenglashtirish (equating) deb ham atash mumkin. Tenglashtirishda turli xil test natijalari (turli guruhlarda, har xil vaqtda olingan) o‘zaro bog‘lanadi. Bunda har xil testlarda baholash ekvivalentligi, test natijalari bog‘lanayotgan sinaluvchilar bosh to‘plamining ekvivalentligi, dizayn ekvivalentligi va konstrukt bir xilligi kabi

talablar qo‘yiladi [1]. Zamonaviy test nazariyasida tenglashtirish turli xil test variantlarini bajarib olingan ballar bitta shkalaga keltiriladi. Bunda mazkur ikkita test natijasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslanishi yoki ikkala variant ham xuddi bitta yaxlit testdan olingan natija kabi qaralishi mumkin [2]. Bu umumiy element usuli bo‘lib, kesishadigan (umumiy elementli) test topshiriqlariga ega bo‘lgan test variantlari turli xil qobiliyat darajalaridagi guruhlarga beriladi.


Ushbu tezisda zamonaviy test nazariyasida ishlab chiqilgan tenglashtirish usullaridan biri bo‘lgan umumiy elementli test varianlaridan foydalalanib o‘tkazilgan test sinovi natijalari o‘rganilgan. Tadqiqot ob’ekti sifatida biologiya fanidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11sinf o‘quvchilaridan olingan test sinovi natijalaridan foydalanilgan va bu natijalar Rash modeli [3-4] bilan tahlil qilingan. Ilmiy tadqiqot maqsadida o‘tkazilgan test sinovlarida foydalanilgan 4 ta umumiy elementli variantlari uchun quyidagi 1-rasmda ko‘rsatilgan umumiy sxemadan foydalanilgan [5].

Variantlar	V1	V2	V3	V4	Savollar
kesishgan savollar_1	■	■			6
kesishgan savollar_2	■		■		6
kesishgan savollar_3	■			■	6
kesishgan savollar_4		■	■		6
kesishgan savollar_5		■		■	6
kesishgan savollar_6			■	■	6
yangi savollar_V1	■				30
yangi savollar_V2		■			30
yangi savollar_V3			■		30
yangi savollar_V4				■	30
Savollar umumiy soni	48	48	48	48	156

	V1	V2	V3	V4
V1	X	1	1	1
V2	1	X	1	1
V3	1	1	X	1
V4	1	1	1	X

1-rasm. Umumiy elementli test variantlarining sxemasi

Umumiy elementli (o‘zaro kesishgan) test variantlaridan foydalanish orqali standartlik ta’minlanadi va turli guruhdan olingan natijalarni bitta shkalada baholash mumkin bo‘ladi. 2rasmdan to‘g‘ri javoblar sonini qobiliyat daragalariga mosligini ifodalovchi test xarakteristikasi chizig‘i keltirilgan. Test xarakteristikasi chizig‘idan to‘g‘ri javoblar soni qobiliyat daragalariga mos holda ortib borishini va umumiy elementli test variantlarining (V1, V2, V3, V4) qiyinlik darajalari bir-biriga yaqin ekanligi ko‘rish mumkin.



2-rasm. Umumiy elementli test variantlarining natijalari asosida aniqlangan test xarakteristikasi chiziqlari

Xulosa qilib aytganda umumiy elementli test variantlaridan foydalanib standartlikni ta’minlash va har xil qobiliyatli guruhlardan olingan test sinovi natijalaridan aniqlangan qobiliyat darajalarini bitta shkalaga keltirish mumkin. To‘g‘ri javoblar sonini qobiliyat darajalariga mosligini ifodalovchi test xarakteristikasi chiziqlari o‘rganilib, umumiy elementli (V1, V2, V3, V4) test variantlarining qiyinlik darajalarini solishtirish mumkin ekanligi va V1 va V3- test variantlarining qiyinlik darajalari umumiy qobiliyat darajalari uchun nisbatan osonroq bo‘lganligi aniqlandi. Buning natijasida 4 ta, umumiy elementli variantlarda bir xil sondagi test topshiriqlarini bajargan sinaluvchilardan qiyinlik darajasi yuqoriroq bo‘lgan variantni yechgan sinaluvchilarning ballari yuqori bo‘lishi ko‘rsatib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yu, Chong Ho and Osborn-Popp, E. Sharon. Test Equating by Common Items and Common Subjects: Concepts and Applications, Practical Assessment, Research, and Evaluation: Vol. 10, 4, 2005.
2. Hambleton R.K., Swaminathan H. & Rogers H.J. Fundamentals of item response theory. Newbury Park, CA: Sage., 1991.
3. Rasch G.. Probabilistic models for some intelligence and attainment tests, Copenhagen, Danish Institute for Educational research. 1960.
4. Partchev Ivailo. A visual guide to item response theory, Friedrich-Schiller-Universitat Jena. 2004.
5. Wobbe Zijlstra. ALTE-accreditation Uzbekistan Psychometrics, Seminar at the Agency for Assessment of Knowledge and Competences, 2022.

INTEGRATING FORMATIVE AND SUMMATIVE ASSESSMENT IN ESP–CLIL CONTEXTS

Axmedova Maftuna Kozimjon qizi
Center for Higher Education Development Studies

This paper explores the integration of formative and summative assessment within the framework of English for Specific Purposes (ESP) and Content and Language Integrated Learning (CLIL). While CLIL emphasizes subject-content learning through a foreign language, ESP focuses on developing domain-specific communicative competence. Effective assessment remains a key challenge in such integrative contexts, particularly in balancing language proficiency and subject knowledge. This study adopts a practice-oriented, analytical approach, drawing upon existing literature and pedagogical frameworks. Key findings highlight that formative assessment methods such as project-based tasks, e-portfolios, and reflective journals provide continuous feedback and enhance learner autonomy, while summative tools such as standardized tests, integrated rubrics, and oral presentations ensure accountability and certification. The proposed framework suggests a complementary model where formative and summative approaches reinforce one another, ensuring transparency, validity, and fairness. Practical recommendations are presented for educators to apply innovative technologies and balanced evaluation strategies in ESP–CLIL classrooms.

OLIY TA’LIMDA BILIMLARNI BAHOLASHNING O‘RNI VA USULLARI

Vaxidov Avazbek Ashiralievich
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Zamonaviy ta’limda baholash faqat bilimni nazorat qilish emas, balki o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning shaxsini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasidir. Ayni paytda baholashda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi notenglik, asosan amaliy ko‘nikmalarni baholashning qiyinligi, sub’ektivizm va umumlashtirilgan mezonlar yetishmovchiligi kabi muammolar mavjud. Shu bois ma’ruzada quyidagi masalalar tadqiqoti ko‘zda tutiladi:

1. Baholashning asosiy nazariy konsepsiyalari (an’anaviy va alternativ)ni tahlil qilish.
2. Amaliyotda qo‘llanilayotgan baholash usullarini (test, loyiha, portfolio, keys-stadilar, amaliy ishlar) tavsiflash va solishtirma tahlil qilish.
3. Testlar orqali baholash tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimi kontekstida bilimlarni baholash O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risidagi» Qonunida belgilangan ta’lim sifatini baholash mezonlari, attestatsiya va akkreditatsiya mexanizmlariga to‘liq mos kelishi lozim. Ularda zamonaviy ta’limga qo‘yiladigan talablar, shu jumladan kompetensiyaga asoslangan yondashuv va uni baholash tamoyillari aks etgan. Shu tamoyillarga asoslangan O‘zbekiston olimlarining ishlarida bilimlarni baholashning turli usul va metodikalarini o‘rganishga, ularni takomillashtirishga e’tibor beriladi. Ular baholash jarayonida turli metodlar (differensial, integral, diagnostik)dan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishini ta’kidlaydilar.

Ma’ruzada oliy ta’limda amaliyotda qo‘llanilayotgan baholash usullari tavsiflanadi va ular solishtirma tahlildan o‘tkaziladi. Testlar orqali baholash usulini takomillashtirishga tegishli takliflar ilgari suriladi.

BAHOLASH JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Azimkulova Sabrina, Mexrilla Okbayev
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Ushbu maqolada 21-asr o‘quvchilarining kompetensiyalari va ko‘nikmalarini baholashda zamonaviy texnologiyalar hamda innovatsion yondashuvlarning o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda funksional savodxonlik, mustaqil o‘qish, global kompetensiya va “soft skills” (yumshoq ko‘nikmalar)ni xalqaro standartlar, xususan, PISA talablari asosida baholash zarurligi yoritilgan. Real vaqtli o‘yin asosidagi baholash (game-based assessment) usullari an’anaviy baholash tizimlariga zamonaviy muqobil sifatida ko‘rib chiqiladi. Mazkur yondashuvlarning afzalliklari — tezkorlik, moslashuvchanlik va individual tahlil imkoniyatlari bilan birga, ma’lumot

ishonchliligi hamda namunalar to‘g‘riligini ta’minlash kabi muammolar ham qayd etiladi. Shuningdek, maqolada Evidence-Centered Design (ECD) metodologiyasi va formatif baholashning ta’lim jarayonida o‘quv yutuqlarini shakllantirish, nazorat qilish va baholashdagi ahamiyati ta’kidlanadi. Ushbu innovatsion yondashuvlar kompetensiyaga asoslangan ta’lim tizimida sifat va ishonchlilikni oshirishga xizmat qiladi.

TEST NATIJALARINING INFIT VA OUTFIT STATISTIK TADQIQOTI

[1]Amonov Qobil Ashrafovich, [2]Karimov Yoqub Ziyodullayevich

[1]O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy – o‘quv amaliy markazi,[2]O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi

Test sinovlarini samarali tashkil etishda sinaluvchilarning turli xil qobiliyat darajalarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois test topshiriqlari bir xil darajada emas, balki turli qiyinlik darajalarida tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv sinaluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yanada aniqroq o‘lchash, ularning individual tayyorgarlik darajasini to‘liqroq baholash imkonini beradi. Test topshiriqlari qiyinlik darajasining tabaqalashtirilishi sinaluvchilarning imkoniyatlarini to‘liq ochib berishga, baholash natijalarining xolis va ishonchli bo‘lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, yuqori qobiliyatli sinaluvchilar uchun murakkabroq savollar, pastroq tayyorgarlikka ega bo‘lganlar uchun esa nisbatan sodda savollarni qo‘llash baholash tizimining samaradorligini oshiradi.

Test topshiriqlarining ichki (infit) moslik statistikasida javoblar namunasining qobiliyat darajasiga aksincha, qobiliyat darajalarining javoblar namunasiga qay darajada sezgir ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni, u sinaluvchi o‘z darajasiga mos vazifalarda modeldan qanchalik chetlanishini aniqlaydi. Ichki (infit) moslik **haddan tashqari qiyin yoki oson vazifalarga** unchalik sezgir emas, chunki uning e’tibori **mos darajadagi topshiriqlar**ga qaratiladi. Test topshiriqlarining ichki mosligi aniqlangan mezonlardan katta bo‘lsa, Gutman namunasi bilan bog‘liq bo‘lgan, mezonlardan kichik bo‘lsa, muqobil o‘quv dasturi bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarni beradi.

Tashqi (outfit) moslik statistikasi esa test topshiriqlari qiyinlik darajalari qobiliyat darajasidan, aksincha qobiliyat darajasi qiyinlik darajasidan tashqaridaligini ko‘rsatadi. Test topshiriqlari uchun esa tashqi moslik uning uchun aniqlangan mezonlardan katta bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘lmagan javoblarni, kichik bo‘lsa, tasodifiy yoki ehtiyotsizlik bilan berilgan javoblarni bildiradi.

Ushbu maruza tarix fanidan o‘tkazilgan test sinovi natijalarining Rash modeli asosida aniqlangan test topshiriqlarining qiyinlik darajasi, ichki (infit) va tashqi (outfit) moslik statistikalari o‘rganildi. Test topshiriqlarining ichki (infit) moslik qiymati 0,7-1,3 oralig‘idan tashqariga chiqmaganligi aniqlandi.

BO‘LAJAK BIOLOG-PEDAGOG MUTAXASSISLARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI BAHOLASHNING STEAM MEZONLARI

Mirzayeva Nodira Abduhamidovna
Alfraganus university

Ushbu maqolada dunyoning rivojlangan davlatlari ta’lim tizimida samarali qo’llanilib kelinayotgan ta’lim yondoshuvi, ya’ni STEM ta’lim xaqida so’z boradi. Steam yondoshuvga asoslangan ta’lim tizimi bo’lajak biolog-pedagoglarni jahon hamjamiyati bilan birga fikrlashga, bilim olayotgan o’quvchilarda esa tadqiqotchilik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va izlanuvchanlik ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ta’lim siyosati, ta’lim dasturlari va o‘quv dasturlari kelajakda ishchilar, rahbarlar va mamlakat fuqarolarini tayyorlashda zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak. Kelajak uchinchi ming yillik ta’limiga qarab qarab harakatlanar ekanmiz, STEM sohasi fanlari doirasida xabardorlikni shakllantirish va ta’lim orqali STEM kompetensiyasini rivojlantirish qilish muhimdir. STEM bilan bog‘liq ta’lim dasturlari jamiyatning turli qatlamlari ehtiyojlarini hamda STEM sanoatidagi turli kasbiy muhiti ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Ko‘pgina mamlakatlarda, o‘rta va yakuniy maktab imtihonlari, shuningdek, ta’limning ayrim darajalari oxiridagi jamoat imtihonlari, birinchi navbatda, STEM bilimlarini baholashga qaratilgan va STEM tayyorgarlik bilan bog‘liq bo‘lgan yaxlit talablarni samarali aks ettirmaydi. Baholashda shakllantiruvchi va umumiy yondashuvlar bo‘lishi kerak. STEM loyihasini yoki tajribanini o‘tkazish, uning natijalarini taqdim etish, shuningdek o‘qituvchilarning guruh faoliyatini kuzatishi, pedagogik ta’lim klasteri tamoyiliga binoan kichik guruh loyihalarida individual ishlash texnologiyalarni tashkil etish kabi tadbirlarda talabalarning STEM ta’lim texnologiyalarini to‘liq egallaganligi haqidagi muhim ma’lumot va diagnostik usullarni taqdim etishi mumkin.

QOBILIYAT DARAJASINI ANIQLASHDA TEST TOPSHIRIQLARI DISTRAKTORLARINING AHAMIYATI

[1]A.R. Sattiyev, [2]M.Dj. Ermamatov, [3]D.M. Alimov
[1]Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o‘quv amaliy markazi, 100084, Toshkent sh., Bog‘ishamol k., 12., [2]Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o‘quv amaliy markazi, 100084, Toshkent sh., Bog‘ishamol k., 12., [3]Bilim va malakalarni baholash agentligi, 100084, Toshkent sh., Bog‘ishamol k., 12.

Test topshirig‘i savoldan, to‘g‘ri javobni va distraktorlarni o‘z ichiga olgan muqobil javoblardan iborat bo‘lib, bunda samarali distraktorlarni tanlash muhim o‘rin tutadi [1-4]. Odatda mutaxassislar muqobil javobli test topshiriqlarining distraktorlarini tuzish uchun savol tuzishga

nisbatan ozroq vaqt sarflaydilar, lekin muqobil javoblarni tanlash ham malaka va tajriba talab qiladi.

Distraktorlarning to‘g‘ri javoblardan farqlanishi bilan birga to‘g‘ri javobga o‘xshagan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlarda distraktorlik vazifasini bajarmaydigan javoblar ham uchrab turadi va bu odatda juda kam tanlangan distraktorlardir. Bu borada mezon sifatida 5 foizdan kam va 95 foizdan ko‘p tanlangan distraktorlarni ishlamaydigan distraktorlar deb olinadi [2,4,5], shuning uchun bunday distraktorlarni o‘zgartirish tavsiya qilinadi.

Test topshiqlarining o‘zaro va umumiy ball bilan korrelyatsiyalari ham ularning o‘zaro mutanosibligini va umumiy ballga qo‘shgan hissasini baholash uchun muhimdir, ya’ni test topshiriqlarining o‘zaro korrelyatsiyasi test topshiruvchilar bitta test topshirig‘ini yaxshi (yomon) bajarayotgan bo‘lsalar boshqasini ham xuddi shunday yaxshi (yomon) bajarishlarini, umumiy ball bilan korrelyatsiya esa unga ko‘proq hissa qo‘shayotgan test topshiriqlari kamroq hissa qo‘shayotgan test topshiriqlari bilan mutanosibligini baholash imkonini beradi.

Ushbu maqolada matematika fanidan 2025-2026- o‘quv yili uchun bakalavriatga kirish test sinovida foydalanilgan test topshiriqlarining distraktorlari tahlilini keltiramiz. Tadqiqot jarayonidagi hisoblashlarda R dasturida ishlatiladigan dexter to‘plamidan foydalanildi [6].

Matematika fanidan 2025-2026- o‘quv yili uchun bakalavriatga kirish test sinovida foydalanilgan variant (1- kun 1- smenada foydalanilgan bitta variant) 30 ta yopiq test topshirig‘idan iborat bo‘lib, ushbu test sinovida 1071 nafar abituriyentlar ishtirok etganlar. Maqolada foydalanilgan dastur [6] bilan olingan distraktorlarning chizmasi variantdagi har bitta javoblar tanlanmasi nisbiy chastotasining parametrik bo‘lmagan regressiyasini ko‘rsatadi. Bunda ballar yig‘indisida javob berilmagan belgilashlar ham hisobga olinadi.

Quyida keltirilgan jadvallarda matematika fanidan 2025-2026- o‘quv yili uchun bakalavriatga kirish test sinovida foydalanilgan variantdagi (1- kun 1- smenada foydalanilgan bitta variant) ayrim test topshiriqlariga abituriyentlarning tanlagan javoblari foizi va ushbu javoblar ichidan quyi, o‘rtacha va yuqori qobiliyatli test topshiruvchilarning tanlangan javoblari foizi keltirilgan bo‘lib, bu yerda: TTS- test topshiruvchilar soni; TMJ- tanlangan muqobil javoblar foizi; 0 ÷ 25% - quyi qobiliyatli, ya’ni variantdagi test topshiriqlarining 0 ÷ 25 foizi oralig‘ida tog‘ri javob bergan test topshiruvchilarning tanlagan muqobil javoblari foizi; 25 ÷ 75%- o‘rtacha qobiliyatli,ya’ni variantdagi test topshiriqlarining 25 ÷ 75 foizi oralig‘ida tog‘ri javob bergan test topshiruvchilarning tanlagan muqobil javoblari foizi; 75 ÷ 100%- yuqori qobiliyatli, ya’ni variantdagi test topshiriqlarining 75 ÷ 100 foizi oralig‘ida tog‘ri javob bergan test topshiruvchilarning tanlagan muqobil javoblari foizi; A^*- kalit; B, C va D distraktorlar; NA- belgilanmagan javoblardir.


Bundan tashqari distraktor grafiklari yordamida (quyida keltirib o‘tiladigan rasmlarda) distraktorlar to‘g‘risida ko‘proq ma‘lumot olish mumkin. Bunda biz yuqorida aytib o‘tilgan (jadvallarga mos ravishda) test topshiriqlari distraktorilarining grafiklarini ham tahlil qilib chiqamiz. Aytib o‘tganimizdek ma’lum bir test topshirig‘iga javob bermagan abituriyentlarning javobi NA bilan belgilangan. Chizmalarning pastki qismida to‘g‘ri javoblar ulushi (Pval), element va umumiy ball korellyatsiyasi (Rit), element chiqarilgandagi umumiy ball bilan korellyatsiyasi (Rir) keltirilgan. Rasmlarning chap burchagida distraktorlarga berilgan javoblarga mos keluvchi rangli chiziqlar bilan ko‘rsatilgan. Qavs ichidagi 1 raqami to‘g‘ri javobni (0) esa noto‘g‘ri javoblarni bildiradi.

1-jadval

Har bir test topshirig‘iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	636475				
	TTS	*TMJ, %*	*0÷25, %*	*25÷75, %*	*75÷100, %*
A*	256	23,90	12,16	26,24	43,48
B	299	27,92	34,99	25,00	20,11
C	296	27,64	32,75	27,48	16,85
D	215	20,07	19,85	21,07	17,93
NA	5	0,47	0,25	0,21	1,63

1-jadvaldan ID raqami 636475 bo‘lgan test topshirig‘ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko‘rinadi. Bu test topshirig‘i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo‘yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to‘g‘ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko‘rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo‘lib borgan sari kamayib borayotganligini ko‘rish mumkin. Bundan esa, umuman olganda ushbu test topshirig‘i o‘z vazifasini bajarayotganligi haqida xulosani qilish mumkin. Shunga qaramasdan 0,47 foiz talabgorlar ushbu test topshirig‘ini umuman belgilamaganlar. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo‘lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo‘lgan talabgorlar ham ba’zi oson savollarga tayyorgarlik ko‘rmaganligini, tasodifan javoblarni tanlamaganliklarini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganliklarini anglatadi.



1-rasm. To‘g‘ri javoblar sonining va 636475 ID raqamli test topshirig‘i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog‘liqligi

1-rasmdan 636475 ID raqamli test topshirig‘iga to‘g‘ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,24 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig‘i qiyinlik darajalari bo‘yicha 2- qiyinlik darajasida ekanligini ko‘rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos keladi. Ushbu test topshirig‘i mutaxassislar tomonidan 2- qiyinlik darajasida deb belgilangan. Aniqlangan qiyinlik darajalari mutaxassislar tomonidan belgilangan qiyinlik darajalaridan keskin farq qilganda edi, bunday test topshiriqlari mutaxassislar tomonidan o‘rganib chiqilshi lozim bo‘lar edi. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrellyatsiyaning (Rit) 0,300, u umumiy balldan chiqarilgandagi korellyatsiyaning (Rir) 0,170 ga tengligi ushbu test topshirig‘ining umumiy ball bilan korellyatsiyasi yaxshi ekanligini ko‘rsatadi. 636475 ID raqamli test topshirig‘ining to‘g‘ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi 0,3÷0,4 oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko‘rish mumkin. To‘g‘ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o‘qidagi o‘zgaruvchining barcha o‘zgarish sohasida oshib borganini ko‘rish mumkin. Bu


tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig‘ining distraktorlariga javob berganlar ulushi 0,1÷0,4 oraliqdan boshlanib, 0 gacha kamayib borishini 3-rasmdan ko‘rish mumkin.

2-jadval

Har bir test topshirig‘iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	622545				
	TTS	*TMJ, %*	*0÷25, %*	*25÷75, %*	*75÷100, %*
A*	**268**	**25,02**	**16,13**	**26,65**	**40,22**
B	**329**	**30,72**	**34,99**	**28,31**	**27,72**
C	**264**	**24,65**	**27,05**	**26,24**	**15,22**
D	**209**	**19,51**	**21,84**	**18,60**	**16,85**
NA	**1**	**0,09**	**0,00**	**0,21**	**0,00**

2-jadvaldan ID raqami 622545 bo‘lgan test topshirig‘ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko‘rinadi. Bu test topshirig‘i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo‘yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to‘g‘ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko‘rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo‘lib borgan sari kamayib borayotganligini ko‘rish mumkin. Bundan esa, umuman olganda ushbu test topshirig‘i o‘z vazifasini bajarayotganligi haqida xulosani qilish mumkin. Shunga qaramasdan 0,09 foiz talabgorlar ushbu test topshirig‘ini umuman belgilamaganlar. Bu faqat qobiliyat darajasi o‘rta bo‘lgan talabgorlar orasida uchraydi. Bu esa ushbu talabgorlarning tayyorgarlik darajasi pastroq ekanligini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganliklarini anglatadi.



2-rasm. To‘g‘ri javoblar sonining va 622545 ID raqamli test topshirig‘i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog‘liqligi

2-rasmdan 622545 ID raqamli test topshirig‘iga to‘g‘ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,25 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig‘i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo‘yicha 2- qiyinlik darajasida ekanligini ko‘rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos keladi. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrellyatsiyaning (Rit) 0,202, u umumiy balldan chiqarilgandagi korellyatsiyaning (Rir) 0,065 ga tengligi ushbu test topshirig‘ining umumiy ball bilan korellyatsiyasi yaxshi emasligini ko‘rsatadi. 622545 ID raqamli test topshirig‘ining to‘g‘ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi 0,2÷0,3 oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko‘rish mumkin. To‘g‘ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa

o‘qidagi o‘zgaruvchining barcha o‘zgarish sohasida oshib borganini ko‘rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig‘ining distraktorlariga javob berganlar ulushi 0,2÷0,4 oraliqdan boshlanib, 0,1 gacha kamayib borishini 2-rasmdan ko‘rish mumkin.

Distraktorlar va ularning grafik usulini tahlil qilish, distraktorlarning test topshiruvchilar javoblariga qanchalik ta’sir qilishini, qaysi qobiliyat darajasigacha tanlangan javoblar mos kelishini yoki taxmin ekanligini tahlil qilish imkonini berdi. Bu esa mutaxassis-ekspertlarga distraktorlarni tanlab olishda, test variantida test topshiriqlarini taqsimotini va uning statistik ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun imkon yaratadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida matematika fanidan 2025-2026- o‘quv yili uchun bakalavriatga kirish test sinovida foydalanilgan variantdagi (1- kun 1- smenada foydalanilgan bitta variant) test topshiriqlarining distraktorlari ko‘rib chiqildi. Umuman olganda, mazkur variantdagi tanlab olingan test topshiriqlarining distraktorlarini barchasi yaxshi ishlayotganligi aniqlandi. Bundan esa mutaxassis-ekspertlar tomonidan variantdagi test topshiriqlari uchun tanlangan distraktorlar yaxshi tanlangan deb xulosa qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. В.С. Аванесов Дистракторный анализ//Журнал Педагогические измерение, Москва, №1, 2013, стр.70-78.
2. M.Dj. Ermamatov, I.A. Boyxonov Distraktorlar tahlili: Biologiya fanidan o‘tkazilgan test sinovi natijalari// BMBA “Axborotnoma” ilmiy uslubiy jurnali, 2023 yil, 2-son, 4-19 betlar.
3. Cizek GJ, O‘Day DM: Further investigations of nonfunctioning options in multiple-choice test items. Educ Psychol Meas 1994, 54(4):861-872.
4. Sattiyev A.R., Ermamatov M.Dj., Alimov D.M. Ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikat uchun o‘tkazilgan test sinovida foydalanilgan test topshiriqlarining distraktorlari va korrelyatsiyalari// BMBA “Axborotnoma” ilmiy uslubiy jurnali, 2024 yil, 2-son, 4-96 betlar.
5. Marie Tarrant, James Ware and Ahmed M. Mohammed, An assessment of functioning and non-functioning distractors in multiple-choice questions: a descriptive analysis, BMC Medical Education 2009, 9:40.
6. Gunter Maris, Timo Bechger, Jesse Koops and Ivailo Parchev, Data Management and Analysis of Tests, 2022, p. 1-49.

VALID AND FAIR FOUR-SKILLS TESTING & FUTURE DIRECTIONS IN ASSESSMENT

Aidan Holland
Global Assessment Solutions Manager, British Council

As governments and institutions place increasing importance on transparent, high-stakes testing for admissions and progression, the principles of validity and fairness become ever more critical. This presentation reviews the main ways in which tests are used, with a particular focus on admissions to higher education, and explores how reliability, fairness, and positive washback can be safeguarded both during and beyond the test development process. International case studies, including exit testing in Spain and Vietnam, illustrate how these principles are applied in

practice. The talk also considers emerging trends in digitalisation and AI in assessment, examining how technology can enhance access and efficiency while ensuring that the role of teachers and human judgement remains central.

СОЗДАНИЕ НАУЧНО-ОБОСНОВАННОЙ БЛАГОПРИЯТНОЙ И ПРИЕМЛЕМОЙ СРЕДЫ ПРИ КОНТРОЛЕ ЗНАНИЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ НЕЗРЯЧИХ ПРЕТЕНДЕНТОВ – ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ПРИОРИТЕТОВ В РАБОТЕ УПРАВЛЕНИЯ ПО ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

[1]Нурматов Жавлонбек Абдунабиевич, [2]Ураева Эльвира Усмановна, [3]Аббосов Авазбек Абдулхамид угли

[1]Агентство по оценке знаний и квалификаций при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, [2]Агентство по оценке знаний и квалификаций при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, [3]Агентство по оценке знаний и квалификаций при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

В статье представлена информация об используемом впервые в Республике Узбекистан новом специальном формате тестовых заданий для оценки устных компетенций у инвалидов по зрению. Оптимизированный формат заданий и критерии оценивания позволяют структурированно оценивать два аспекта речи по иностранному языку (аудирование и говорение). На данном этапе применяется для английского, французского, немецкого и арабского языков. Впоследствии предполагается использование и по другим романо-германским и восточным языкам. Данный формат заданий претворяет в жизнь задачи, поставленные в Указе Президента Республики Узбекистан от 21 февраля 2024 года No УП-37 о создания благоприятной и приемлемой среды для незрячих лиц при изучении иностранных языков, в данном случае на этапе контроля знаний.

MAKTAB BITIRUVCHILARINING ADABIYOT BO‘YICHA BILIM VA KO‘NIKMALARINI BAHOLASH: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA QIYOSIY TAHLILI

Djalilov Komil Qudratovich
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Baholashning ta’lim jarayoni ishtirokchilari xatti-harakatlariga ta’siri, ularning nimani va qanday o‘rganishlari va o‘rgatishlarini belgilashi – “washback” ta’siri ilmiy adabiyotlarda o‘z isbotini topgan (1). Xususan, “yuqori qiymatga ega” (“high stakes”) deb qaraladigan imtihonlarning ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilarga ta’siri mexanizmlari hamda bunday ta’sirning qanday shart-sharoitlarda ijobiy yoki salbiy yo‘nalishda bo‘lishi ochib berilgan (2). Shu nuqtai nazardan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktyabrdagi 646-son qarori asosida Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan joriy etilgan Umumta’lim fanlarini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha Milliy sertifikat ham, uning bir qator muhim qarorlar, xususan, abituriyentlarning oliy ta’limga qabul qilinishi yoki pedagoglarga qo‘shimcha ustamalar tayinlanishida qo‘llanilishi hisobga olinsa, “yuqori qiymatga ega” test deb qaralishi mumkin va uning mazmun-mundarijasi ta’lim jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Konferensiyaga taklif qilinayotgan maqolada Bilim va malakalarni baholash agentligining ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikati (adabiyot qismi) mazmun-mundarijasi hamda baholanadigan konstruktlar bir qator xalqaro tizimlarning, xususan, A-level (Buyuk Britaniya, Singapur), AP (AQSH) va International Baccalaureate (IB Diploma Program) adabiyot fani imtihonlari mazmun-mundarijasi hamda baholanadigan konstruktlari bilan solishtiriladi va Milliy sertifikat tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi. Xususan, xalqaro tizimlarda maktab bitiruvchilarining adabiyot fani bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini baholashda tahlilchi, tanqidchi yoki kommunikator modellaridan biri asos qilib olinganini kuzatish mumkin. Bunday modellar tegishli ta’lim tizimining yuqori sinflar adabiyot dasturi ustiga qurilgan bo‘lib, maktab bitiruvchisining oliy ta’limga, xususan, matnlarni chuqur tahlil qilish, solishtirish va tanqid qilishni talab qiladigan fanlarni o‘zlashtirishga qay darajada tayyorgarligi haqida ma’lumot bera oladi. Bilim va malakalarni baholash agentligi milliy sertifikat imtihonlarini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish uning oliy ta’limga tayyorlik darajasini o‘lchash funksiyasini aniqroq bajarishini ta’minlash imkonini beradi.

TESTLARNI STANDARTLASHTIRISHDA SPETSIFIKATSIYANING ROLI

M. P. Abdullaeva
Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o‘quv amaliy markazi,
Toshkent shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, 12-uy

Ushbu ilmiy tadqiqotda ta’lim jarayonida bilim va ko‘nikmalarni ishonchli, adolatli va obyektiv baholashda test spetsifikatsiyasining ilmiy-metodik asos sifatidagi o‘rni tahlil qilinadi. Test sinovlari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlashda eng samarali baholash vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq test natijalarining ishonchliligi va validligi ko‘p jihatdan u qanday spetsifikatsiyaga asoslangan holda tuzilganiga bog‘liq. Maqolada Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi

Ilmiy-o‘quv amaliy markazida tashkil etilgan malaka oshirish kurslari tajribasi asosida Ona tili va adabiyot fanidan test topshiriqlarini shakllantirish jarayoni tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlanadi. Jumladan, test spetsifikatsiyasida domen va konstruktning aniq tavsiflanmaganligi, topshiriq parametrlari va texnik ko‘rsatkichlarning yetishmasligi, qiyinlik darajasi va Bloom taksonomiyasi asosidagi kognitiv darajalarning ko‘rsatilmaganligi kabi kamchiliklar test topshiriqlarining sifati va standartlashtirilganlik darajasiga salbiy ta’sir qilishi ta’kidlangan. Shu sababli tadqiqotda test spetsifikatsiyasini takomillashtirish yuzasidan bir qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi. Xususan, har bir test topshirig‘i uchun alohida tavsif berish, matn hajmi va janriga oid aniq mezonlarni belgilash, topshiriqlarni kognitiv darajalar asosida tasniflash va ekspert kelishuvi mexanizmlarini joriy etish zarurligi asoslab beriladi. Mualliflar ta’kidlaganidek, test spetsifikatsiyasi testlarni yaratishda yo‘l-yo‘riq beruvchi asosiy hujjat bo‘lib, uning mukammalligi baholash jarayonining adolatli, ishonchli va ilmiy asoslangan bo‘lishini ta’minlaydi. Mazkur tadqiqot test tuzuvchi ekspertlar, pedagoglar va baholash bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, sifatli test materiallarini ishlab chiqishda metodik qo‘llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA METODOLOGIYASI

Abatbaeva Aqmaral, Mexrilla Okbayev
SamDTU

Mazkur maqolada ta’lim tizimida bilim va malakalarni baholashning nazariy asoslari hamda metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Baholashning pedagogik jarayon sifatidagi o‘rni, uning maqsad va vazifalari, zamonaviy yondashuvlar — kompetensiya asosida, formativ va summativ baholash turlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan baholash modellarining afzalliklari tahlil qilinib, ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. "Ta'limda baholash nazariyasi va

metodologiyasi" orqali biz baholash jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali ta'lim samaradorligini oshira olamiz hamda o‘z ta'lim muassasalarida bo‘lajak til va adabiyot o‘qituvchilarini baholash sohasidagi bilimlar bilan qurollantirish orqali umumta'lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga hissa qo‘sha olamiz.Tadqiqotda ilmiy tahlil, qiyosiy tahlil va nazariy umumlashtirish usullari qo‘llanilgan.

MINI-CEX(MINI CLINICAL EVALUATION EXERCISE): TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA TALABA BILIMINI AMALIY BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULI

Abdiraxmanov Resul Jumamuratovich
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Ushbu tadqiqotda tibbiyot universitetlarida talabalarning klinik ko‘nikmalarini baholashda Mini-Clinical Evaluation Exercise (Mini-CEX) usuli o‘rganiladi. Tadqiqotda Mini-CEX sessiyalari talabalar bilan amaliy mashqlar, bemor bilan suhbat va fizik tekshiruv jarayonlarida qo‘llaniladigan baholash shakli sifatida joriy etiladi. Talabalarga va o‘qituvchilarga usulning foyda va imkoniyatlari, xususan ko‘nikmalarni takomillashtirish, real vaziyatda kuzatuv, tezkor fikr-mulohaza olish imkoniyati jihatidan baholanadi. Tadqiqot natijalari Mini-CEX sessiyalarining klinik tushuncha, bemor bilan muloqot, tashkiliy jihatlar va professionallik sohalarida sezilarli yaxshilanishga olib kelishini ko‘rsatadi. Ushbu usul o‘quv dasturiga kiritilishi talabalar malakasini oshirish va tayyorgarlikdagi kamchiliklarni aniqlashda samarali vosita ekanligi aniqlandi.

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BAHOLASHDA YANGI YONDASHUVLAR

Abdulhamidova Nilufar Qahramonovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Maqolada ta’lim jarayonida baholashning ilmiy–nazariy asoslari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida baholashning yangi yondashuvlari tahlil qilinadi.

An’anaviy baholash usullarining cheklanganligi va ular o‘quvchilarning ijodiy, kommunikativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini to‘liq aks ettirmasligi ko‘rsatiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, portfel asosida baholash, kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘qitish, hamkorlik va o‘zaro baholash kabi alternativ usullar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini har tomonlama baholash imkonini beradi. Maqolada raqamli baholashning samaradorligi, real vaqt rejimidagi tahlil, algoritmlar yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash, akademik halollikni ta’minlash va baholash jarayonida adolatni oshirish masalalari bayon etiladi.

TIL KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA GRAMMATIK TIZIMNING STRUKTUR-FUNKSIONAL O‘RNI

Abdullayev Ikramjon Xashimdjanovich, Abdulazizova Ozoda Abduxalil Qizi
Andijon davlat chet tillari institute

Maqolada og‘zaki va yozma til ko‘nikmalarini baholashda grammatik tizimning struktur va funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Grammatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy qismi sifatida talqin etilib, xalqaro baholash tizimlari doirasida grammatik aniqlik va xilma-xillik talablarining farqlari yoritiladi. Tadqiqotda grammatik ko‘rsatkichlarni miqdoriy baholash usullari — grammatik aniqlik, struktur murakkablik va so‘z turkumlari nisbatlari — asosida natijalar tahlil etilib, yuqori baholangan nutqlarda kam xatolik va murakkab strukturalar, past darajalarda esa oddiylik ustunligi aniqlanadi. Maqola til o‘rganuvchilar grammatik kompetensiyasini baholashda struktur-funksional yondashuvning dolzarbligini asoslaydi.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR MOTIVATSIYASINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Abdullayeva Maftuna Baxodir qizi
Oliy ta’lim,fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Mazkur maqolada bilim va malakalarni baholash jarayonida professor -o‘qituvchilarning motivatsiyasini oshirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Motivatsiyaning asosiy omillari, ularni baholashdagi rolini oshirishga xizmat qiluvchi metodlar, shuningdek, zamonaviy baholash yondashuvlari bilan integratsiyasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajriba asosida motivatsiyani rag‘batlantirishga oid tavsiyalar beriladi. Ta’lim tizimi transformatsiyalashayotgan hozirgi sharoitda oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning motivatsiyasi ta’lim sifatini oshirishdagi muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, bilɨm va malakalarni baholash — faqat talabalarni emas, balki o‘qituvchilarning ham faoliyatini tahlil qilish, baholash va rivojlantirish vositasi sifatida qaralmoqda.

EFFECTIVENESS AND VALIDITY OF FORMATIVE AND SUMMATIVE ASSESSMENT IN TESOL

Abdulloyeva Madinabonu Sayfulloyevna
New Uzbekistan University

Assessment is a central feature of Teaching English to Speakers of Other Languages (TESOL), and questions are still being asked about the relative value and validity of formative and summative methods. Although available studies report on their separate contributions, little attention has been paid to the interrelated operation of accounts in TESOL. To examine the effects both types of assessment have on language learning, this paper engages a comparative synthesis of recent empirical and classroom studies. The significance here suggests the importance of TESOL professionals adopting hybrid testing systems that incorporate developmental as well as high stakes purposes.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Abdumurodova Mohinur Panji qizi
Termiz davlat universiteti

Mazkur ishda bilim va malakalarni baholashda nazariy va amaliy yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Unda baholash turlari, mezonlari va zamonaviy metodlari haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Shuningdek, nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida ko‘rsatilgan.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim va malakalarini to‘g‘ri hamda adolatli baholash dolzarb masalalardan biridir. Ta’lim sifati bevosita baholashning aniqligi va samaradorligiga bog‘liq. Baholash nafaqat o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini aniqlash, balki uning amaliy ko‘nikmalarini, mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini ham o‘lchash vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg‘unligi muhim rol o‘ynaydi. Mazkur ishda aynan shu ikki yondashuvning o‘ziga xos jihatlari, afzalliklari hamda ta’limdagi o‘rni yoritib beriladi.

CROSS-LINGUISTIC INTERFERENCE IN TEACHING ENGLISH AT B1+ AND B2 LEVELS

Abdurakhimova Nigora Bahtiyarovna
Renaissance Educational University

This article explains the language interference that occurs in English learners at B1+ and B2 levels due to the influence of their native language (L1) and previously acquired languages (L2). The main focus is on grammatical, phonological, and lexical errors. The empirical analysis is conducted on the basis of written and oral tasks, the causes of errors are identified, and methodological recommendations are developed. The results of the study are of practical importance for ESL teachers and suggest approaches to reduce interference.

FORMATIVE ASSESSMENT AS A TOOL TO ENHANCE TEACHERS' PROFESSIONAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Abdurazakova Umida Olimovna
EFL teacher at Secondary School No. 5

This study investigates how formative assessment (FA) fosters teachers' professional development (PD) and higher-order cognition within Uzbekistan's school context. Through an eight-week practitioner inquiry involving 20 in-service EFL teachers engaged in School-Based and Cluster CPD sessions, the research explores how FA routines—success criteria, exit tickets, rubrics, peer feedback, and reflective journals— activate different levels of Bloom's taxonomy in both teaching and teacher learning. Data were collected from classroom observations, reflective journals, peer feedback forms, and self-efficacy surveys. Findings reveal that routinized FA cycles lead to significant growth in teachers' analytical and evaluative thinking, strengthen evidence-based instructional decisions, and enhance reflective competence. The study concludes that formative assessment functions not only as assessment for learning but also as assessment as learning for teachers, providing a cognitively rich framework for sustainable professional development in Uzbekistan's EFL classrooms.

ZAMONAVIY TA'LIMDA BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH: AMALIY TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Ahmadjonova Dilorom Tursunboy qizi
Namangan davlat pedagogika instituti

Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda bilim va malakalarni baholashning amaliy tajribalari, mavjud muammolari va istiqbollariga to‘xtalib o‘tiladi. Ta'lim sifatini oshirish uchun samarali baholash usullarini joriy etish muhimligi ta'kidlanadi. Maqolada mahalliy va xalqaro tajribalar asosida baholash jarayonidagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari va innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

TA’LIMDA BAHOLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI (FALSAFAIY FANLAR MISOLIDA

Ahmedov Husniddin Ixtiyorovich
Termiz davlat pedagogika instituti

Ushbu maqola ta’limda baholash jarayonlarini raqamlashtirishning afzalliklariga bag‘ishlangan. Unda raqamli platformalar, mobil ilovalar va maxsus dasturiy ta’minotlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning o‘z o‘rganish natijalarini mustaqil tahlil qilishi va bir-birini baholashi uchun sharoit yaratish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Raqamli vositalarning bu jarayonlarni yanada shaffof, ob’yektiv va samarali qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi falsafiy fanlar tizizmida tahlil qilinadi

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BAHOLASH JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

A.M.Ahmedov
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ushbu maqolada ta’lim tizimida baholash jarayonini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli platformalar, sun’iy intellekt, elektron portfoliolar, adaptiv baholash tizimlari kabi zamonaviy vositalar yordamida baholashning shaffofligi, aniqligi va samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

Shuningdek, baholash metodikasiga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish orqali talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, motivatsiyani kuchaytirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishning ilmiy asoslari ko‘rib chiqiladi.

Hozirgi davrda ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri – o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, xalqaro tajribaga mos keladigan sifat standartlarini joriy etishdir. Bu jarayonda **baholash tizimi** alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, balki ularning ijodkorligi, mustaqil fikrlashi, amaliy ko‘nikmalari va kompetensiyalarini baholashda ham muhim o‘rin tutadi.

An’anaviy baholash usullari, masalan, yozma yoki og‘zaki imtihonlar, kundalik nazorat ishlari, reyting tizimlari, albatta, ma’lum afzalliklarga ega. Ular orqali o‘quvchining bilim darajasi tezkor aniqlanadi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida bevosita muloqot shakllanadi. Ammo bunday usullarning **cheklovlari** ham mavjud: inson omiliga bog‘liq subyektivlik, natijalarni qayta ishlash va tahlil qilishda vaqtning ko‘pligi, ko‘nikma va kompetensiyalarni to‘liq qamrab ololmaslik. Shu sababli, zamonaviy ta’lim jarayonida faqat an’anaviy baholash usullari yetarli emas.

THE JUSTICE OF KNOWLEDGE: REIMAGINING ASSESSMENT THROUGH THE LENS OF ISLAMIC JURISPRUDENCE

Dr. Ahmet ALKAN
Adıyaman University
Theology Faculty, Department of Basic Islamic Science, Islamic Jurisprudence orcid:
https://orcid.org/0009-0001-6378-3706

Contemporary educational assessment predominantly relies on quantitative measures, often overlooking the ethical and intentional dimensions of learning. In contrast, Islamic legal thought integrates knowledge, justice, and intention into a unified framework. This study critically examines modern assessment practices through the lens of Islamic law by employing the principle of the "Justice of Knowledge." Utilizing a qualitative, document-based analytical approach, the research develops the foundations for a value-driven assessment model grounded in the notions of competence (*kifāya*) and merit (*nişb*). As a result, the evaluation of knowledge is reconceptualized not merely as a technical measurement, but as an ethical practice that upholds justice, secures rightful entitlements, and fosters social accountability.

MUSIQIY TA’LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Allabergenova Nafosat Shuhratovna
Urganch shahar 2-musiqa maktab

Ushbu maqolada musiqiy ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, uning o‘quvchilarda musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv musiqiy ta’limda nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki ijodiy fikrlash, estetik didni shakllantirish hamda amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim o‘rin tutishi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada musiqiy ta’limda kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari va ularning o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta’siri ko‘rib chiqilgan.

Musiqiy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv nafaqat o‘quvchilarda musiqiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki ularning shaxsiy va ijodiy salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv musiqiy ta’limni zamonaviy talablar darajasiga olib chiqadi va yosh avlodni estetik jihatdan barkamol inson etib tarbiyalashga katta hissa qo‘shadi. Musiqiy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, ijodkorlikni rivojlantirish, estetik dunyoqarashni shakllantirish va shaxsni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

DIGITAL ASSESSMENT METHODS IN EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES

Amanova Madina Xamid qizi
Jizzakh State Pedagogical University

This article analyzes the advantages and disadvantages of using digital assessment methods in education. Digital technologies provide opportunities for fast, transparent, and accurate evaluation of students’ knowledge, as well as effective monitoring and analytical tools for teachers. At the same time, challenges such as technical failures, dependence on internet connectivity, fairness of assessment, and data privacy remain significant issues. The paper highlights various forms of digital assessment systems, their application practices, and future prospects. Furthermore, recommendations are provided on how to enhance the quality of assessment in modern education through technological solutions.

EVALUATING CRITICALDISCOURSE PROCESSING (CDP): BRIDGING LINGUISTIC PROFICIENCYAND SOCIO-PRAGMATIC LITERACYIN L2TESTING

Aminboeva Shakhriniso Ulugbekovna
Urgench State University

Conventional L2 assessments privilege grammar, vocabulary, and literal comprehension, implicitly treating texts as neutral containers of information. We argue that real-world proficiency requires Critical Discourse Processing (CDP) the cognitively constrained capacity to identify authorial intent, framing, stance, presuppositions, and source practices in often multimodal media discourse. Drawing on psycholinguistics of discourse, we define CDP as a measurable construct, translate it into assessment claims and evidence via evidence-centered design, and present practical task designs that elicit short, evidence-anchored justifications without inflating linguistic load. We outline scoring via analytic rubrics and modern psychometrics, and propose a validation program emphasizing reliability, construct coherence, predictive value, and fairness [1,2]. The result is an assessment strand that complements structural measures with socio-pragmatic literacy essential for contemporary communication.

CLASSROOM ASSESSMENTS IN WRITING CLASSES

Rano Arslonbekova
University of World Economy and Diplomacy

This article illustrates classroom assessment methods that are used to help teachers guide their students in writing classes and assist students in improving and monitor their learning. The author gives explanation to each classroom assessment which teachers can adopt or adapt to their students’ learning styles and teaching milieu. In addition, samples of some classroom assessment methods are proposed that can be utilized in writing classes.

TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BAHOLASHNING O‘RNI

Ashirova O‘g‘iloy Abduvali qizi
Sayhunobod tuman 2-son politexnikumi

Mazkur maqolada ta’lim jarayonida bilim va malakalarni baholashning zamonaviy yondashuvlari, innovatsion usullari hamda ularning amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Unda baholash tizimining shaffofligi, adolatliligi va samaradorligini ta’minlash bo‘yicha ilg‘or tajribalar keltirilgan. Xususan, elektron test tizimlari, portfolio, kompetensiyaga asoslangan

baholash, o‘zaro baholash va raqamli kuzatuv kabi zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari yoritilgan. Baholash jarayonining nafaqat nazorat, balki rivojlantiruvchi ta’siriga urg‘u berilgan hamda baholash metodlarining rivojlantiruvchi xususiyatlari, zamonaviy yondashuvlar orqali o‘quv jarayonini takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Maqolada politexnikumlarda tarbiya fanini o‘qitish jarayonida baholashni faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilarning ijodkorlik, mustaqillik va tahliliy fikrlashini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida tashkil etish zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha istiqbolli ilmiy-amaliy g‘oyalar ilgari surilgan.

YEVROPA MAMLAKATLARIDA MAKTAB BITIRUVCHILARINING TIL KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH XUSUSIYATLARI

Asilova Gulshan Asadovna
Alfraganus University

Globallashuv davrida bir necha tilni bilish shaxsiy va kasbiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimlarida maktab bitiruvchilarining bir necha tilni bilishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan va keng tajriba to‘plangan. Tilni bilish darajasini aniqlash va baholashda an’anaviy ko‘nikmalarni baholovchi usullar bilan bir qatorda, yangi deskriptorlardan ham foydalanilmoqda. Bunday ijobiy va samarali yondashuvlarni o‘rganish O‘zbekiston ta’lim tizimida ham zarur islohotlarni amalga oshirish uchun qimmatli ma’lumotlar berishi mumkin. Mazkur maqolada Germaniya, Buyuk Britaniya va Finlandiyada maktab bitiruvchilarining xorijiy til kompetensiyalarini baholashda qo‘llanadigan tizimlar tahlili va qiyosiga doir xulosalar taqdim etilgan.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Avazova Munira Sobir qizi
Qarshi davlat universiteti

Zamonaviy ta’lim tizimida bilim va malakalarni baholash muhim o‘rin tutadi. Baholash nafaqat o‘quvchilarning erishgan natijalarini ko‘rsatib beradi, balki ta’lim jarayonining samaradorligini ham belgilab beradi. Baholash jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ikki tomonlama aloqani o‘rnatadi. U o‘quvchining qaysi nuqtada turganini, nimalarni o‘zlashtirganini va qaysi jihatlarga ko‘proq e’tibor qaratishi lozimligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, baholash o‘qituvchiga ham dars jarayonini qay darajada samarali olib borayotganini anglashga yordam beradi. Shu ma’noda

baholash faqat nazorat vositasi emas, balki ta’limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARINI O‘QITISHDA NAZARIY BILIM VA AMALIYOTNING O‘RNI

Aziza Axmedova
Toshkent viloyati madaniyat boshqarmasi, madaniy faoliyatni rivojlantirish va xalq ijodiyoti sho‘basi

Ushbu maqolada san’atshunoslik fanlarini o‘qitishda nazariy va amaliy bilimlarning o‘rni va bevosita uyg‘unligi ochiqlab berilgan. Talabalarga san’at asarlarini tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyati, shakliy xususiyatlari va madaniy ahamiyatini baholash ahamiyati yoritilgan.

San’atshunoslik insoniyat madaniyatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u san’at asarlarini o‘rganish, tahlil qilish va ularning badiiy, estetik hamda ijtimoiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Ushbu fanlarni o‘qitishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarning ham o‘rni beqiyosdir. Zero, faqat nazariyani o‘zlashtirish san’atni chuqur anglash uchun yetarli bo‘lmaydi, amaliyot esa o‘quvchini bilimni hayotiy tajriba bilan bog‘lashga undaydi.

San’atshunoslik fanlarini o‘qitishda nazariy bilimlarning o‘rni avvalo, o‘quvchilarga:

– san’at tarixi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish,

– turli san’at yo‘nalishlari (tasviriy san’at, musiqa, teatr, me’morchilik, adabiyot va boshqalar)ning xususiyatlarini anglash,

– san’at asarlarining janr, uslub va badiiy yechimlarini tahlil qilish,

– estetik mezonlar asosida asarlarni baholash imkonini beradi.

Teatrshunoslik san’atshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, teatr san’ati taraqqiyoti, uning nazariy asoslari, dramaturgiya, sahna ijrosi va tomoshabin bilan aloqador jarayonlarni o‘rganadi. Teatrshunoslikni o‘qitishda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Zero, teatr san’ati nafaqat ilmiy bilimlar, balki bevosita sahna tajribasi orqali chuqur anglanadi. Teatr san’ati — murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, unda dramaturg matni, rejissyor qarashlari, aktyor ijrosi, sahna bezagi, musiqiy hamda texnik vositalar birlashadi. Shuning uchun teatrshunoslik fanida spektaklni tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy faoliyat hisoblanadi. Spektakllarni o‘rganish nafaqat sahna asarining badiiy qiymatini belgilaydi, balki teatr san’atining rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga ham xizmat qiladi.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR: SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN INNOVATSION MODEL

Axrorova Laylo

Maqolada baholashning nazariy va amaliy yondashuvlari sun’iy intellekt (SI) vositalari bilan integratsiyada ko‘rib chiqiladi. Taklif etilgan AI–Human CoAssessment modeli kompyuterlashtirilgan adaptiv testlash, simulyatsiyalardagi “stealth assessment”, yozma ishlar uchun avtomatik fikr-mulohaza va eportfolio/learning analytics ma’lumotlari asosida rivojlanishni uzluksiz qo‘llabquvvatlaydi. Etika, xolislik, xavfsizlik va akademik halollik tamoyillariga muvofiq joriy etish yo‘l xaritasi taklif etiladi.

BAHOLASH JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Azimov Ahmad Umar o‘g‘li, Azimova Shaxlo Umarovna
Qarshi davlat universiteti

Ushbu maqolada ta’lim jarayonida baholash tizimini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning o‘rni tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli vositalar, onlayn platformalar hamda interaktiv metodlardan foydalanish baholash samaradorligini oshirishi, shaffoflik va obyektivlikni ta’minlashi mumkinligi asoslab berilgan.

Barchamizga ma’lumki bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida ta’lim tizimida samaradorlikni ta’minlash uchun baholash jarayoniga alohida e’tibor qaratilmoqda. An’anaviy baholash usullari ko‘plab afzalliklarga ega bo‘lsa-da, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mazkur maqolada baholash tizimidagi zamonaviy o‘zgarishlar, ular ta’lim sifatiga ta’siri hamda istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilinadi.

O‘QITUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI BAHOLASH: XALQARO TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR

Azizova Mohira Anvarovna
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Maqolada o‘qituvchilarning funksional savodxonligi tushunchasi, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va xalqaro miqyosda qo‘llanilayotgan baholash mexanizmlari tahlil qilingan. TALIS, OECD va UNESCO kabi xalqaro tashkilotlarning tajribalari o‘rganilgan,

shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimida mavjud yondashuvlar hamda istiqbollar muhokama etilgan.

O‘qituvchilarning funksional savodxonligini baholash – ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi o‘zining kasbiy savodxonligi bilan nafaqat bilim, balki o‘quvchining hayotiy ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida bu boradagi islohotlar global tajribalar bilan uyg‘unlashgan holda, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qilad

O‘ZBEKISTONDA TA’LIMDA STANDARTLASHTIRILGAN TEST SINOVLARI: AMALIYOT VA ISLOHOTLAR

Baratov Akmal Abdumajitovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o‘quv amaliy markazi

O‘zbekistonda standartlashtirilgan test sinovlari — ta’lim sifatini baholash, o‘quvchilarni talabalikka saralash va davlat imtihonlarini o‘tkazishda keng qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda bu sohada jiddiy islohotlar amalga oshirildi, xususan, shaffoflik, raqamlashtirish va adolatli baholash tizimlari yo‘lga qo‘yildi.

2018 yildan boshlab baklavriyat ta’lim yo‘nalishlariga qabul jarayoni katta sig‘imli binolarda o‘tkazila boshladi. Yangi test formati, onlayn ro‘yxatdan o‘tish, binolarda video kuzatuv joriy qilindi va keng ommaga onlayn nazorat qilish imkoniyati yaratildi. Hozirda yagona elektron reyting asosida davlat oliy ta’lim muassasalariga qabul amalga oshiriladi.

Milliy sertifikatlash tizimi yo‘lga qo‘yilib, o‘quvchilarning o‘quv fanlari bo‘yicha haqiqiy bilimlarini baholash yo‘lga qo‘yildi. Milliy setifikat testlarida o‘quvchilarning yuqori kogenitiv darajalarini baholash maqsadida o‘quv fani bo‘yicha ochiq testlar va yozma ishlar ham kiritildi. O‘quvchilarning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini baholash imkoniyati yuzaga keldi.

O‘quvchilarning test natijalari testning klassik va zamonaviy nazariyasi asosida tahlil qilinib, ballar Rash modeli asosida hisoblash yo‘lga qo‘yildi. Chet tilidan tegishli darajadagi Xalqaro va Milliy sertifikatga ega bo‘lgan abiturientlarga shu o‘quv fanidan imtihon topshirishdan ozod qilinib, fanlar majmuasidagi o‘rniga muvofiq to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball berish joriy etildi. Boshqa umumta’lim fanlaridan Milliy sertifikatlarga ega bo‘lgan abiturientlar A^+ va A darajali sertifikatga ega bo‘lishsa fanlar majmuasidagi o‘rniga muvofiq to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball, qolgan darajadagi sertifikatlar bo‘yicha proporsional ball berish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Fanlar majmuasidagi majburiy fanlar bo‘yicha har qanday darajadagi Milliy sertifikatga ega bo‘lgan abiturientlarga shu fandan maksimal beriladi.

Shuningdek, yozma ishlarni baholovchi ekspertlar bazasi baholash va pedagogik o‘lchovlar bo‘yicha malaka oshirish kursida o‘qigan va o‘z fanidan A^+ yoki A darajaga ega bo‘lgan mutaxassislardan shakllantirilib kelinmoqda. Ekspertlarning baholash bo‘yicha ishlari doimiy monitoring qilib boriladi.

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILAR GA ODAM VA UNING SALOMATLIGI FANIDA “NAFAS OLISH SISTEMASI” MAVZUSINI KO‘RGAZMALI VOSITALAR ORQALI DARS JARAYONINI SAMARALI OSHIRISH

Bektayeva Xuriyat Ortigaliyevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Mavkur maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni ham ilm-fan bilan qamrab olish va bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini kengaytirish hamda o‘quvchilarning tabiiy fanga yo‘naltirilgan bilimlari bilan bir qatorda biologik tasavvurlarini yanada keng va chuqurroq bo‘lishiga yaqindan yordam berish zarurligi, yo‘llari aytib o‘tilgan. Inkluziv ta’limdagi bolalarda biologiya o‘qitish metodikasidan foydalanish jarayoni xususida fikrlar yuritilgan.

BILIMLAR BAHOSIDA YANGI DAVR: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT

Bektoshev Mubashirxon Odilbek o‘g‘li
Qo‘qon Davlat Universiteti

Ushbu maqola ta'lim jarayonida bilim va malakalarni baholashning zamonaviy usullari, ularning amaliy qo‘llanilishi va istiqbollariga bag‘ishlangan. Maqolada baholashning an'anaviy usullari bilan zamonaviy yondashuvlar qiyosiy tahli qilinadi, shuningdek, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, adaptiv testlar kabi innovatsion texnologiyalarning baholash jarayoniga qanday integratsiyalashayotganligi ko‘rib chiqiladi. Ta'lim sifatini oshirishda ushbu texnologiyalarning roli va ularni joriy etishda duch kelinadigan muammolar ham muhokama qilinadi.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ И КОМПЕТЕНЦИЙ: ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Замира Бешимова

В статье рассматриваются современные теоретические и практические подходы к оценке знаний и компетенций обучающихся. Автор анализирует существующую систему оценивания в образовательных учреждениях Узбекистана, выявляет её сильные и слабые стороны, а также предлагает меры по её совершенствованию. Особое внимание уделено

переходу от формального измерения знаний к компетентностноориентированным моделям, а также цифровизации и внедрению прозрачных инструментов мониторинга качества образования.

THE ROLE OF ASSESSMENT IN IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF EDUCATION

Boqijonov Beknazar Nodirbek o‘g‘li, Qo‘chqarova Umida Isoqjon qizi
Namangan Davlat Pedagogika Instituti

Ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishda baholash muhim o‘rin tutadi. Baholash faqatgina natijalarni o‘lchash emas, balki o‘qituvchilar faoliyatini yo‘naltiruvchi, o‘quvchilarga o‘z bilimini nazorat qilishda yordam beruvchi va ta’lim jarayonida samaradorlikni ta’minlovchi qayta aloqa tizimi sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqolada baholashning shakllari — formatif, summativ, diagnostik va autentik baholash turlari yoritilib, ularning o‘quv jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, standartlashtirilgan testlarga haddan tashqari urg‘u berish, stress va tengsizlik kabi muammolar ham muhokama qilinadi. Maqolada adolatli, inklyuziv va maqsadli baholash tizimlarini yaratish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Xulosa qilib aytganda, samarali baholash ta’limni dinamik va o‘quvchiga yo‘naltirilgan jarayonga aylantiradi.

BIOLOGIYA FANIDAN BAHOLASHNING GENDER NEYTRALLIGI VA TENG IMKONIYATLARNI TA’MINLASH USULLARI

Boyxonov Islombek Abduqaxxor o‘g‘li
O‘zbekiston respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o‘quv amaliy markazi

Mazkur maqolada biologiya fanidan baholash jarayonida gender neytrallik va teng imkoniyatlarni ta’minlash muammolari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi – baholash tizimida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan gender stereotiplarini aniqlash hamda ularni kamaytirishning samarali yo‘llarini taklif qilishdan iborat. Maqolada UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlari hamda PISA tadqiqotlari tahlil qilingan. Shuningdek, kriterial baholash, anonim baholash, raqamli platformalardan foydalanish va laboratoriya ishlarida teng sharoit yaratish kabi yondashuvlarning afzalliklari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender neytral baholash o‘quvchilarning biologiya faniga qiziqishini oshiradi, ta’lim jarayonida adolatni ta’minlaydi va qizlar hamda o‘g‘il bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Maqola yakunida biologiya fanidan baholash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu natijalar biologiya ta’limida sifat va adolatni oshirish, shuningdek, xalqaro ta’lim standartlariga mos baholash tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

BUILDING VALID, FAIR, AND USEFUL ASSESSMENTS: THEORETICAL FOUNDATIONS AND METHODOLOGY FOR MEASURING KNOWLEDGE AND SKILLS

Buzurukov Azbarkhuja Ulugkhuja ugli
Fergana pedagogical skills center

High-quality assessment is not a single test but a principled system that connects theory, design decisions, psychometric evidence, and ethical use [1, 11]; [9, 2]. This article synthesizes the theoretical foundations, construct representation, validity, reliability/generalizability, and fairness with a practical methodology for developing and using assessments of knowledge and skills in schools, universities, and professional settings. Drawing on contemporary validity theory (argument-based and unified conceptions), classical test theory, item response theory, and generalizability theory, it proposes an 11-step assessment development cycle that spans construct definition through score reporting and continuous improvement. The article also discusses performance assessment and standard setting (Angoff/Bookmark), technology-enhanced assessment (CBT, CAT, AI-assisted scoring), and safeguards for accessibility, bias detection, and security. A short context note outlines opportunities for coherent assessment reform in national systems. The paper concludes with actionable design heuristics that help educators and test developers build assessments that are valid, fair, and maximally useful for learning.

TA’LIMDA INNOVATSION MOBILLIK VA UNING MOHIYATI

Bagbekova Laylo Kadirbergenovna
Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Mazkur maqolada, oliy ta’lim tizimida mobillik va uning turlari, shaxsning mobilligi, pedagogik mobillik hamda innovatsion mobillik tushunchalari mazmuni va mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, innovatsion mobillik darajalari o‘rganilib tahlil qilingan. Ta’lim tizimida salohiyatli kadrlarni tayyorlashda pedagoglarni jarayonga tezda moslasha olish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’limga moslashtira olish, pedagogik kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish, ta’limga kreativ yondasha olish qobiliyatlarini shakllantirish haqida so‘z boradi.

THEORETICAL FOUNDATIONS AND METHODOLOGY OF ASSESSING KNOWLEDGE AND SKILLS

Djurayeva Dilnoza Shakirjonovna, Qoldosheva Dilnoza Shunqorbek qizi
Termez State University

This article explores the theoretical foundations and methodological approaches to assessing knowledge and skills in the educational process. The principles of objectivity, systematic approach, transparency, and consistency are analyzed in the context of modern pedagogy and psychology. Traditional assessment methods such as oral questioning, written assignments, and examinations are compared with modern approaches including testing, project-based learning, diagnostic tasks, portfolios, and competence-based assignments. The article also examines the role of formative and summative assessment, as well as international experiences such as PISA and Bologna standards. It is argued that assessment should not only measure knowledge but also evaluate students' ability to apply learning in real-life situations. The study concludes that a scientifically grounded and methodologically diverse assessment system is a crucial factor in improving educational quality and ensuring student-centered learning.

THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES IN THE ASSESSMENT OF KNOWLEDGE AND QUALIFICATIONS

Therence Atabong njuafac
Istanbul Aydin University and Doğa College

The contemporary landscape of knowledge and qualifications assessment is marked by a critical transition from reductionist, score-based models towards diagnostic, actionable frameworks. This paper explores this paradigm shift by analyzing and contrasting two advanced approaches aligned with the conference theme of theoretical and practical assessment. First, we examine the Knowledge Space Theory (KST), a combinatorial model that defines an individual's knowledge as a precise "state" within a structured domain. Its practical implementation in the ALEKS system demonstrates how adaptive, computer-based assessment can efficiently pinpoint a learner's knowledge state among hundreds of thousands of possibilities, yielding actionable results through "inner" and "outer" fringes. Second, we analyze a practical readiness assessment from the healthcare management sector, which evaluates the theoretical understanding and practical implementation knowledge of Lean Hospital tools among management teams. This study reveals a significant "knowing-doing gap," where theoretical awareness is not matched by practical competency. By classifying these models, this paper argues that effective modern assessment must integrate a robust theoretical model of the knowledge domain with a mechanism for evaluating practical applicability. The findings conclude that the future of qualification lies in diagnostic models that not only evaluate but also generate personalized pathways for learning and implementation, thereby bridging the critical gap between knowledge possession and knowledge application.

ПРОБЛЕМА МНОГОВАРИАНТНОСТИ РЕШЕНИЙ ТЕСТОВЫХ ЗАДАНИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ И ПУТИ ЕЁ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Ершов Вячеслав Андреевич, Сувонов Нусрат Рахмонович, Хакбердиев Зиёдали Виктор угли

Агентство по оценки знаний и квалификаций при министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

В статье всесторонне анализируется проблема многовариантности решений в тестовых заданиях по математике. Особое внимание уделяется противоречию между целевым методом решения, который закладывается составителем при проектировании задания, и альтернативными методами, которыми на практике могут пользоваться претенденты. Это противоречие затрудняет оценивание знаний: возникает вопрос, следует ли учитывать только тот метод, который является целевым, или же любой способ решения, ведущий к правильному ответу.

В качестве примера рассмотрена оптимизационная задача о строительстве моста, которая допускает как геометрическое, так и аналитическое решение. Геометрический метод предполагает использование свойств симметрии и построение отражённых точек, в то время как аналитический метод базируется на моделировании длины пути с помощью функции и нахождении её минимума посредством производной. Несмотря на то что оба метода приводят к одинаковому численному результату, они проверяют различные компетенции учащихся, что делает проблему оценки особенно значимой.

В исследовании обоснована необходимость методического ограничения способов решения при помощи структурирования условия и разделения задачи на части. Подробно анализируются два подхода к формулировке заданий: последовательные вопросы и параллельные условия. Последовательные вопросы позволяют поэтапно отслеживать ход мыслей обучающегося, однако обладают существенным недостатком: ошибка в первой части автоматически исключает возможность получения баллов за вторую, что снижает объективность оценки. Параллельные условия, напротив, дают возможность претенденту проявить свои знания на любом этапе, независимо от ошибок, и тем самым повышают надёжность и справедливость тестирования.

В статье показано, что грамотное сочетание этих подходов позволяет одновременно решать две задачи: направлять обучающихся к целевому методу решения и в то же время сохранять объективность оценивания. Таким образом, полученные результаты имеют важное значение для теории и практики педагогических измерений, так как подчёркивают роль не только конечного результата, но и самого метода решения как критерия оценки уровня математической подготовки. Предложенные рекомендации могут быть использованы при разработке тестов различного уровня сложности, в том числе при проведении массовых экзаменационных и диагностических процедур.

TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BAHOLASH VA SIFAT MONITORINGINI YO‘LGA QO‘YISH

Eshova Hurriyat Xurramovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Ushbu maqolada multimedia texnologiyalarining ta’lim muassasalari faoliyatini baholash va sifat nazoratini amalga oshirishdagi o‘rni hamda ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Multimedia vositalari yordamida ta’lim jarayonlarini, o‘quvchilar faoliyatini va ta’lim muassasalari boshqaruv tizimini baholashning zamonaviy usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, multimedia platformalarining interaktivligi va vizual imkoniyatlari baholash samaradorligini oshirishda qanday rol o‘ynashi, sifat nazoratining doimiy monitoringi va tahlili uchun qulayliklar yaratishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga maqolada multimedia texnologiyalarining ta’limda joriy etilishi bilan bog‘liq texnik, metodologik va tashkiliy muammolar hamda ularni hal qilish yo‘llari keltiriladi. Maqolada ilmiy natijalar multimedia yordamida sifatli va shaffof baholash tizimlarini yaratish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

4K KO‘NIKMALARINING PISA VA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAGI O‘RNI

Farsaxonova Mastura Jalol qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ushbu maqolada 4K ko‘nikmalari (kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kollaboratsiya)ning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati hamda ularning PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlaridagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada ilmiy adabiyotlar, xalqaro tadqiqotlar hamda O‘zbekiston ta’lim siyosatidagi yangiliklar asosida muammo yoritiladi. Tadqiqotdan maqsad – xalqaro baholash dasturlari vositasida o‘quvchilarda 4K ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali yo‘llarini aniqlashdir.

MULTIMODAL PR DISCOURSE AS AN AUTHENTIC INPUT FOR EFL READING AND LISTENING ASSESSMENT

Fayziyeva Kamola O'tkur qizi
Agency for Assessment of Knowledge and Competences under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, 100084, Tashkent., Bogishamol str., 12

This article reveals how multimodal, persuasive, and intercultural communication found in PR discourse can serve as an authentic input for EFL assessment. The shift from traditional scripted texts to authentic multimodal materials strengthens ecological validity and construct relevance, as emphasized in Bachman and Palmer's framework of test validity (1996). In this study, sample reading and listening items were developed from PR sources such as public safety announcements, educational campaigns, advertisements, and press releases. These texts combined linguistic input with visual elements (charts, graphics, layouts, slogans, and hashtags) which were integrated into test design as meaning carriers rather than decoration. For instance, a listening item paired an "advertisement-style announcement" with an infographic, while a reading task adapted a scholarship press release requiring learners to identify eligibility conditions. Both tasks assessed comprehension alongside pragmatic reasoning and critical evaluation.

The design is grounded in Dual Coding Theory, the Cognitive Theory of Multimedia Learning, and multimodal discourse analysis, which emphasize how verbal and visual channels coconstruct meaning. By mirroring real-world communication, this approach enhances ecological validity, supports fairness and engagement, and broadens the assessment construct to include pragmatic competence, intercultural awareness, and media literacy—key dimensions of the 21st-century skills framework.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF MONITORING AND ASSESSING THE QUALITY OF EDUCATION

E'zoza Fayzullayeva
Shahrisabz State Pedagogical Institute, Shahrisabz, Uzbekistan

This article analyzes the scientific and methodological foundations of monitoring and assessing the quality of education, their role in the modern educational system, and the ways of improvement based on international experience. The study employed observation and interview methods to examine the participation of teachers and students in the assessment process, the effectiveness of the assessment system, and its impact on the quality of education. The results showed that a transparent and consistent assessment system increases students' motivation to learn and provides teachers with opportunities to improve the educational process. The article

highlights the importance of international assessment programs such as PISA and TIMSS, and proposes recommendations for developing a national assessment methodology in Uzbekistan, implementing digital technologies, and enhancing teachers’ professional competence.

BAHOLASHNING KONSTRUKTIVISTIK YONDASHUVDA TUTGAN O‘RNI

M.T.G‘apparova
Navoiy davlati universiteti

Maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida konstruktivistik paradigma asosida baholash tizimining nazariy-metodik asoslari va amaliy ko‘rinishlari yoritilgan. Konstruktivizmning mohiyati shundan iboratki, bilim shaxs tomonidan tayyor shaklda emas, balki faol izlanish, muloqot va shaxsiy tajriba jarayonida quriladi. Shu bois, ta’lim jarayonida baholash faqat yakuniy natijani o‘lchash vositasi emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, refleksiyasini va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Maqolada an’anaviy va konstruktivistik baholash tizimlari taqqoslangan, o‘zbek ta’lim amaliyotidan misollar keltirilgan hamda baholashning zamonaviy metodlari tahlil qilingan.

TA’LIMDA BAHOLASH NATIJALARINI TAHLIL QILISH VA UNDAN TA’LIM JARAYONINI YAXSHILASH UCHUN FOYDALANISH

G‘aniyev Xamidxon Farxod o‘g‘li
O‘R QK “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” Markazi

Ushbu tezisda ta’lim jarayonida baholash jarayoni, natijalarni tahlil qilish va tahlil yakunlaridan ta’lim jarayonini yaxshilash uchun foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

THEORITICAL AND PRACTICAL APPROACHES IN ASSESSING KNOWLEDGE AND SKILLS: INNOVATIVE PERSPECTIVES IN MODERN EDUCATION

Shahnoza Hamroeva
Webster University in Tashkent

Assessment of knowledge and skills is one of the most vital components of the education process. It is not limited to measure student achievement but also influences curriculum development, teaching strategies and policy-making. This article examines both theoritical and practical approaches to assessment, focusing on international experiences and Uzbekistan's educational context. Classical theoritical methods, such as Bloom's Taxonomy, constructive perspectives and formative-summative assessment theories, are analyzed. Practical tools such as rubrics, portfolios, performance-based tasks and digital technologies are explored. Futhermore, the article compares the strengths and weaknesses of various assessment methods, providing recommendations for integrating theoritical insights into practice. By drawing on the work of both foreign and Uzbek scholars, the paper emphasizes the importance of culturally responsive, transparent and competence-based assessment strategies that meet modern educational demands.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY TAJRIBALAR UYG'UNLIGI

Hojiboyeva E'zoza, M.T.Gapparova

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida bilim va malakalarni baholashning nazariy asoslari hamda ularning amaliy qo'llanilishi keng yoritiladi. Baholashning samaradorligi nafaqat nazariy mezonlarning to'g'riligiga, balki ularning ta'lim amaliyotiga qanchalik muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga ham bog'liqligi ta'kidlanadi. Maqolada baholashning asosiy tamoyillari, uning formatif va summativ shakllari, zamonaviy yondashuvlar hamda raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida baholash mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi islohotlar, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nazariya va amaliyot uyg'unligi bilim va malakalarni adolatli, aniq va samarali baholash imkonini beradi.

NAZARIY BILIMLARNI AMALIY MALAKALAR BILAN UYG‘UN BAHOLASH METODOLOGIYASI

Ibadullayeva Gulhayo Shuhrat qizi
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Mazkur maqolada nazariy bilimlarni amaliy malakalar bilan uyg‘un baholash metodologiyasi tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash zaruriyati ta’kidlanadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar, O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va mavjud muammolar ko‘rib chiqilgan. Uyg‘un baholash metodologiyasi o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish, muammolarni hal etish qobiliyatini shakllantirish hamda ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida yoritilgan.

INNOVATIVE APPROACHES TO CREATIVE LANGUAGE ASSESSMENT IN SECONDARY EDUCATION

Ibragimova Nilufar Nugmanjonovna
secondary school №250, Yunusabad, Tashkent

Assessment in language education has long been a cornerstone for evaluating student progress, yet traditional assessment practices often fail to capture the full range of learners’ abilities. In the field of Teaching English to Speakers of Other Languages (TESOL), there is a growing demand for more creative, learner-centered, and anxiety-reducing assessment methods. This thesis explores innovative approaches to formative and summative assessment for secondary students, focusing on the integration of digital tools such as Padlet, Quizlet, and adaptive testing systems like Smarter Balanced. The purpose is to highlight how these strategies enhance student motivation, reduce test anxiety, and provide more authentic measures of language competence. The study also examines how such methods can be contextualized within the Uzbek national curriculum, where exam-oriented assessment remains dominant.

BAHOLASH TIZIMLARINI HIMOYALASH MUAMMOLARI

Ibroximov Nodirbek Ikromjonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Ushbu tezisda baholash tizimlarining kiberhujumlardan himoyalanishi masalalari tahlil qilinadi. Onlayn testlar, masofaviy imtihonlar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarida uchraydigan asosiy tahdidlar, xususan, DDoS hujumlari, ma’lumotlarning o‘zgartirilishi, shaxsni soxtalashtirish va maxfiylikning buzilishi kabi muammolar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida

kiberxavfsizlikning uch asosiy tamoyili – maxfiylik, yaxlitlik va mavjudlik – baholash tizimlariga tatbiq etilib, tizimli tahlil, taqqoslash va nazariy umumlashtirish usullari orqali ularning zaif tomonlari aniqlangan. Shuningdek, xavfsizlikni ta’minlash uchun kompleks texnik va tashkiliy yondashuvlar, shifrlash hamda autentifikatsiya mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

PEDIATRIYA TA’LIMIDA KLINIK FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOGA ASOSLANGAN TA’LIMNI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH USLUBIYATI

Immunaxunova Iroda Xuseyinovna, **Tashmamatova Dilnozaxon Kimsanali qizi**
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘lajak shifokorlarni tayyorlashda, ayniqsa tashxis qo‘yish murakkabligi tahliliy va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini talab qiladigan ambulatoriya pediatriyasida markaziy o‘rinni egallaydi. Ushbu tadqiqot xalqaro tibbiyot talabalari o‘rtasida klinik fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim (PBL) modelining samaradorligini baholash va takomillashtirishga qaratilgan. Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti pediatriya kafedrasida o‘tkazilgan tadqiqotda 135 nafar jismoniy va ruhiy sog‘lom talabalar, shu jumladan 56 nafar ayol ishtirok etdi, ular PBL bilan o‘qitilgan asosiy guruh va ma’ruzalar bo‘yicha nazorat guruhiga bo‘lingan. Baholash obyektiv tuzilmali klinik tekshiruv (OSCE), yozma testlar va o‘z samaradorligi so‘rovnomalarini o‘z ichiga olgan. Natijalar YEXHT ko‘rsatkichlarining 24,1 foizga, yozma test natijalarining 19,0 foizga yaxshilanishini va PBL guruhida o‘z-o‘ziga ishonchning 27 foizga oshishini ko‘rsatdi, bu nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori ($r < 0,05$). Natijalar shuni tasdiqlaydiki, PBL ambulatoriya pediatriyasida klinik fikrlashni takomillashtirishning samarali usuli bo‘lib, tibbiy o‘quv dasturlarida kengroq qo‘llanilishi kerak.

TALIS XALQARO DASTURI DOIRASIDA MAKTAB RAHBARLARI UCHUN MILLIY BAHOLASH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING AHAMIYATI

Ismailov Abduvali Abdumalikovich, Odilova Madinabonu Orifjon qizi
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogic mahorat milliy institute

Maqolada globallashuv sharoitida ta’lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholashning ahamiyati yoritilib, OECD tashabbusi ostida amalga oshiriladigan TALIS dasturining O‘zbekiston ta’lim siyosatidagi o‘rni tahlil qilingan. TALIS tadqiqotlari asosida maktab

rahbarlarining pedagogik yetakchilik, resurslarni boshqarish, o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ta’lim muhitini rivojlantirishdagi roli ta’kidlanadi. Milliy amaliyotdagi baholash tizimining kamchiliklari ko‘rsatilib, rahbarlarning faqat tashkiliy faoliyat emas, balki pedagogik va innovatsion tashabbuslari ham baholanishi zarurligi ilgari surilgan. Shuningdek, kompleks indikatorlar ishlab chiqish, so‘rovnomalar va kuzatuvlardan foydalanish, reyting va sertifikatlash tizimini joriy etish hamda ochiq tahliliy hisobotlar tayyorlash kabi yo‘nalishlar taklif etilgan. Xulosa sifatida, O‘zbekistonda maktab rahbarlarini baholash strategiyasini TALIS tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqish ta’lim sifatini oshirish hamda xalqaro mezonlarga mos rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDA BAHOLASH VOSITALARINING O‘RNI

Ismailova Momogul Hamraboy qizi
Urganch davlat pedagogika instituti

Ushbu maqolada,ta’lim sifatini oshirish va ta’lim samaradorligini ta’minlash har bir ta’lim muassasasi uchun strategik maqsad hisoblanadi va bu maqsadga erishishda baholash (assessment) muhim vosita bo‘lib, nafaqat o‘quvchilarning yutuqlarini aniqlash balki o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ham zaruriy rol o‘ynaydi.Texnologiya fani o‘qituvchilari, xususan tikuv buyumlarini konstruksiyalash va loyihalashning avtomatlashtirilgan tizmlari (masalan, CAD/CAM dasturlar, avtomatik model yaratish tizimlari va raqamli konstruktsiya modullari) bo‘yicha dars berishda, shuningdek, o‘quvchilarga real sanoat sharoitlarida qo‘llashga tayyorlab berishda, yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishlari talab etiladi. Bu kontekstdagi baholash mexanizmlari, ularning sifat va samaradorlikka qo‘shgan hissasi, va ularni texnologiya fani doirasida tatbiq etish imkoniyatlari muhim ilmiy masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

ASSESSING THE CRITICAL THINKING SKILLS OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS: COMBINING THEORY AND PRACTICE IN A DIGITAL ENVIRONMENT

Shukhratjon Ismoiljonov Boymirza ogli
Namangan state institute of foreign languages

In the context of Uzbekistan’s rapid digital transformation and educational modernization, the demand for foreign language teachers equipped with strong critical thinking and digital literacy skills is increasing. This article explores the theoretical and practical aspects of assessing critical thinking skills in pre-service foreign language teachers within a digital

learning environment. The study aims to examine how digital tools and platforms can be integrated into the teaching and assessment process to foster critical thinking competencies.

Methods such as analysis, synthesis, comparison, deduction, and generalization were employed in the research. The findings indicate that the professional development of future language educators requires not only linguistic competence but also the ability to critically evaluate information, make reflective decisions, and adapt to digital environments. A digital assessment module was designed as part of the study to enhance critical thinking skills through practical engagement with online tools.

Furthermore, the research identified key challenges faced by teacher-educators in implementing effective digital pedagogies, such as lack of training and insufficient infrastructure. However, it also highlighted the potential of digital literacy to bridge the gap between theory and practice in modern language education.

The outcomes of the study contribute to developing effective teacher training strategies in Uzbekistan, emphasizing the integration of digital literacy with critical thinking as essential components of pedagogical competence. The findings offer practical recommendations for improving pre-service teachers’ digital competence and critical thinking through evidence-based assessment approaches.

TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA IMKONIYATLARI

Ismoilova Maftuna Toxir qizi
Termiz davlat pedagogika instituti

Ushbu maqolada AI (sun‟iy intellekt) atamasi kundalik hayotimizda tez-tez uchratib va uni qo‘llash butun dunyoda rivojlanib borayotganligi, so‘nggi paytlarda sun‟iy intellekt turli tarmoqlar va ijtimoiy infratuzilmalarga kiritilmoqda. Misol uchun, ish uslubini isloh qilish nomi bilan ishni avtomatlashtirish va unumdorlikni oshirish uchun RJA (Robotik jarayonlarni avtomatlashtirish) joriy etayotgan kompaniyalar soni ortib bormoqda. RJA o‘z-o‘zidan sun‟iy intellekt emas, lekin u kompyuterlarga elektron jadval dasturiy ta‟minoti va asosiy biznes tizimlari kabi oddiy vazifalarni o‘z zimmasiga olishga imkon beradi, ular hukm chiqarishda odamlar tomonidan amalga oshiriladi, boshqacha qilib aytganda, shaxsiy kompyuterning takroriy operatsiyalari. Kelajakda biz sun’iy intellektning ilovalari bo‘lgan qo‘lda yozilgan belgilarni aniqlash, ovozni aniqlash va javob berish tizimlari bilan bog‟lash orqali butun biznesni avtomatlashtirishni maqsad qilganmiz.

THE IMPACT OF ACTIVE LEARNING STRATEGIES ON STUDENT PERFORMANCE AND ENGAGEMENT

Ismoilova Shakhnoza Abdumalik qizi
Namangan State Technical University

This study investigates the influence of active learning strategies on student performance and engagement in higher education settings. Using a mixed-methods approach, the research examines outcomes across three university courses over one academic term. The results reveal that active learning methods significantly improve academic performance and increase student engagement, especially when combined with collaborative group activities. This article contributes to the growing body of literature that supports shifting from passive lectures to interactive, student-centered learning environments.

TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BAHOLASHNING O‘RNI

Jo‘raqulova Jasmina, **Mexrilla Okbayev**
SamDTU

Baholash bu deyarli barcha sohada, jumladan, yuridik, psixologiya, tibbiyot, turizm sohalarida qo‘llaniladigan, o‘rganiladigan buyumning sifatini, sonini, unga tegishli bo‘lgan xususiyatlarni, zarur holatlarda foyda yoki zararli taraflarini hisobga olgan holda keltirib chiqariladigan jarayon hisoblanadi. Ushbu ilmiy maqolada, baholash qanday kelib chiqqanligi, ta’limdagi o‘rni, asosiy turlari, baholash samarali bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan omillar, baholashni yaxshilashda duch kelinadigan to‘siqlar, ularni bartaraf qilishning bir qancha yo‘llari, SamDTU gistologiya kafedrasi tomonidan o‘tkazilgan “Simulation center” da o‘tkazilgan tajriba va ulardan olingan xulosalar keltirib o‘tilgan.

O‘QUVCHILARNING TIL KO‘NIKMALARINI (LISTENING, SPEAKING, READING, WRITING) ALOHIDA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Joraxonova Maftunaxon Baxodirxonovna
42-ixtisoslashtirilgan maktab-internati, Asaka tumani, Andijon viloyati

Xorijiy til ta’limida o‘quvchilarning asosiy maqsadi – tinglab tushunish, og‘zaki nutq, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ushbu maqolada ushbu ko‘nikmalarni alohida baholash jarayonidagi asosiy muammolar va ularning samarali yechimlari tahlil qilindi.

Baholashning adolatli, shaffof va o‘quvchining real bilim darajasini aniqlovchi bo‘lishi zarurligi ta’kidlandi. Shuningdek, interaktiv metodlar, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va milliy hamda xalqaro baholash mezonlari asosida samarali tavsiyalar berildi.

O‘QUVCHILARNING AMALIY KO‘NIKMALARINI BAHOLASH: TEXNOLOGIYA FANI MISOLIDA

Karimov Habibulla Qadambayevich
Urganch davlat Pedagogika institut

Ushbu maqolada texnologiya fani doirasida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va baholash masalalari ko‘rib chiqiladi. Amaliy faoliyatni baholashning nazariy asoslari, formativ va summativ baholash yondashuvlari, shuningdek, portfel, loyiha ishi, kuzatuv kabi usullar tahlil qilinadi. Maqolada o‘quvchilarning mehnat madaniyati, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini hisobga olgan holda baholash mezonlari ishlab chiqish zarurligi asoslanadi.

Mazkur maqolada texnologiya fanining o‘ziga xosligi va o‘quvchilarning amaliy faoliyatini baholashda yuzaga keladigan muammolar, zamonaviy baholash yondashuvlari, ularning samaradorligi hamda ta’lim sifatiga ta’siri keng yoritiladi. Shu bilan birga, loyihaviy yondashuv, portfel baholash, rubrikalar va o‘zaro baholash usullarining afzalliklari tahlil qilinadi hamda takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

BAHOLASHNING SHAFFOFLIGI VA ADOLATLILIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Karimova Gulchehra Abdukarimovna
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Mazkur maqolada ta’lim jarayonida baholashning shaffofligi va adolatliligi masalalari tahlil qilinadi. Baholashning shaffofligi o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasida ishonchni mustahkamlashda, adolatlilik esa ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy baholash yondashuvlari, xalqaro tajribalar hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan.

Baholashning shaffofligi va adolatliligi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim kafolatidir. Bu nafaqat o‘quvchilarning bilimini to‘g‘ri baholash, balki ularda ta’lim jarayoniga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi. Shu sababli, zamonaviy baholash tizimlarida shaffoflik va adolatlilikni ta’minlash ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolishi kerak. O‘zbekistonda baholashning shaffofligi va adolatliligini ta’minlash yo‘lida sezilarli yutuqlar bor. Lekin o‘qituvchilarning baholash mezonlari bo‘yicha bilimini oshirish, elektron platformalarni yanada takomillashtirish hamda xalqaro tajribalarni kengroq joriy etish zarur.

СФЕРА ПРИМЕНЕНИЯ ТЕСТОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И МЕТОДИКИ ДИАГНОСТИКИ ИНТЕЛЛЕКТА В РАМКАХ ТРАДИЦИОННОГО ПОДХОДА

Т.Касимова, Г.Бабажанова, Н.Ерматова
Агентство по оценке знаний и квалификаций при министерстве высшего образования, науки и инноваций, г. Ташкент, ул. Богишамол, 12

В статье рассматриваются особенности применения групповых и индивидуальных тестов интеллекта в различных сферах — образовании, клинической практике, кадровом отборе, психотерапии и других. Раскрываются ключевые различия между двумя форматами тестирования по методике проведения, глубине анализа и целям использования. Описаны основные типы тестов: тест Айзенка, тест структуры интеллекта Амтхауэра (IST) и Школьный тест умственного развития (ШТУР). Особое внимание уделяется их структуре, содержанию субтестов и условиям применения. Отмечается, что выбор подходящего инструмента психодиагностики должен опираться на задачи оценки и характеристики тестируемой аудитории.

LINGUODIDACTIC APPROACHES TO ASSESSMENT OF KNOWLEDGE AND SKILLS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Khaknazarova Luiza
Jizzakh pedagogical university

This paper examines how linguodidactic principles can be applied to the assessment of knowledge and skills within the credit-module system (CMS) of higher education. Drawing on theoretical frameworks and empirical observations from English language programmes, the study explores formative and summative evaluation methods, the integration of digital tools and the alignment of assessment with learning outcomes. Findings show that linguodidactic approaches enhance transparency, objectivity and learner autonomy in assessment.

TRADITIONAL AND MODERN ASSESSMENT METHODS IN THE CLASS

Asila Khaydaraliyeva Dilmurod kizi, Ollamurodova Feruza G‘ovsiddinovna

In secondary and higher education institutions, student assessment criteria play a key role. Lesson processes are based on assessment strategies, which are an indicator not only of the student's mastery of the previous topic, but also of the extent to which he understands the new topic. Currently, each teacher in educational institutions has their own student assessment strategy and methods. In many cases, we can still see the use of traditional, old assessment methods, that is, the topic is recited orally by the student, or they are limited to making a summary. But these are already outdated methods. Today, the 21st century is the century of development and renewal, which requires special preparation for lesson processes, the use of new variants of methodologies and methods. If we look at foreign experience, they are motivating students with interesting and engaging methods such as "Gamification" and "E-portfolio" in the education system. In addition, there are several internationally recognized "Assessment of Qualification" exams for assessing language skills. For example, the IELTS English language proficiency test system is recognized worldwide. It determines your level of speaking, understanding, listening, and writing in this language; that is, the level at which you passed the exam is determined by letter numbers, such as B1, B2, and C1. On the one hand, this increases young people's interest in the language, and on the other hand, it provides an opportunity to learn the language perfectly, get the highest score, and connect their future career with the language. TESOL and SAT exams are among them. Such knowledge assessment systems can also affect the knowledge of students and teachers and their position in social life. This can lead to pure competition in the education system and increase the interest of young people in science. Each country may have its own criteria and techniques for assessing the knowledge of young people. For example, this can be seen in the example of the CEFR certificate in Uzbekistan. This is a language assessment system that operates only in Uzbekistan, which is a certificate that helps students get rid of language exams before entering higher education. The following are considered external assessment criteria, and internal assessment systems are implemented by teachers and mentors during lesson processes and during intermediate control. Such methods help to effectively organize the lesson, focus students' attention, and motivate them to act. But Margaret Rasfeld criticizes the grading systems in schools as useless and, in her opinion, leads to a competitive mindset in schools, saying: “Schools are not there to document failure, but to organize success.” Gerald Hsekxther criticizes grades for being responsible for ensuring that students cannot specialize in any subject they are motivated and talented in, because otherwise their grades in other areas will suffer, and he also argues that “our society will never progress if we force all children to conform to the same grading standards.” In short, there are so many activities that distract young people from the necessary tasks today that it is good that they are monitored by parents and teachers, reminded of what the main goal is, and have a certain system that shows them their mistakes and encourages their achievements.

REFERENCES

1. https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilar-bilimini-baholashning-shakl-va-metodlari/viewer
2. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0062/62_i_20250212_232247_5.30.pdf
3. Международный журнал научных исследователей, 11(2), 269–276. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/ijsr/article/view/107967

SELF-ASSESSMENT METHODS TO IMPROVE LANGUAGE SKILLS

Khodjaniyazova Umida Kulmagambetovna
Karakalpak State University

Self-assessment helps language students improve their speaking, reading, writing, and listening skills by checking their own progress. It allows students to understand their strengths and weaknesses, set clear goals, and take control of their learning. Methods like SWOT analysis, journaling, rubrics, and apps make selfassessment easier and more effective. These tools help students see their progress, stay motivated, and perform better in exams. Despite challenges like lack of time, self-assessment builds confidence and prepares students for real-life language use.

TYPES OF RUBRICS ON ASSESSING PRODUCTIVE SKILLS

[1]Khojieva Farog'at Oltievna, [2]Muratova Marfa Umarovna
[1]NSU, [2]NSPI Academic lyceum

This article highlightes a number of questions that might arise as develop our productive skills assessment tasks. We begin by suggesting a number of task types that might be useful in classroom.

To sum up, I have always found it hard to meet the requirements of being a student. Ever since my years of high school, I really have no idea what professors are looking for to give good grades. When we choose to develop a productive skill,either Speaking or Writing, what we need to see from our students is effective production of the lesson's target language. This will usually include accurate use of the vocabulary or grammar being taught, effective communication of meaning and practical application to a real-life situation. If the student can perform well in all of these regards by the end of the lesson, then we can say that the learning process has been successful.

INNOVATIVE APPROACHES TO ASSESSING SPEAKING SKILLS IN EFL CLASSROOMS: BALANCING RELIABILITY AND AUTHENTICITY

Khudayarova Nilufar Shakirovna
Yangi O'zbekiston Universiteti

The assessment of speaking skills is the most difficult of all among the four language skills, which is influenced by assessment structure and methods as well as environment. This in turn has been affecting the reliability and authenticity of assessment of learners. In our study we conducted a literature review on the reliability and authenticity concerns of assessing speaking skills. Based on the findings, we recommend the use of videoconferencing and AI to improve the reliability and authenticity of evaluating speaking skills.

THEORETICAL AND PRACTICAL ASSESSMENT METHODS IN CYBERSECURITY CERTIFICATION EXAMS

Kodirov Akbarjon Jobir o'g'li
Republic Academic Lyceum named after S.H. Sirojidinov

This article analyzes theoretical and practical assessment methods used in international cybersecurity certification exams. Theoretical tests evaluate candidates' fundamental knowledge of information security, while practical exercises measure real-world skills in detecting and mitigating cyber threats. The integration of theoretical and practical assessment ensures a comprehensive evaluation of professional competence, better preparing specialists for real-life challenges.

IMPROVING THE SYSTEM OF ASSESSING THE KNOWLEDGE AND SKILLS OF PROSPECTIVE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Komiljonova Dilyoraxon

In the current stage of educational development, the improvement of assessment systems for prospective primary school teachers has become a crucial issue. The modernization of teacher education is directly connected to the establishment of an effective system of evaluating not only theoretical knowledge but also the professional and practical skills that ensure the teacher's pedagogical competence. In this regard, the assessment of future teachers' knowledge

and skills serves as both a control mechanism and a motivating factor that stimulates self-development, responsibility, and reflective thinking.

РОЛЬ ЭКЗАМЕНОВ ПО ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ-ЛИНГВИСТОВ И ПЕДАГОГОВ

Курбонова Зиёда Аскарджоновна
Академический лицей Ферганского государственного университета

Экзамены по иностранным языкам занимают особое место в образовательном процессе подготовки будущих специалистов-лингвистов и педагогов. Их результаты являются объективным критерием оценки уровня владения языком и показателем качества профессиональной подготовки. Подготовка к экзаменам способствует не только углублению языковых знаний, но и развитию у студентов навыков самостоятельной работы, критического анализа, планирования и эффективной коммуникации. В условиях глобализации успешная сдача экзаменов открывает доступ к академической мобильности, международным программам и повышает конкурентоспособность выпускников на мировом рынке труда.

Немецкий опыт подтверждает высокую значимость стандартизированных экзаменов, таких как TestDaF, Goethe-Zertifikate и DSD II, которые признаются в международном академическом сообществе. Они соответствуют требованиям CEFR и служат официальным подтверждением языковой компетенции для поступления в вузы Германии и других стран. Подготовка к данным экзаменам развивает как грамматическую точность, так и навыки чтения, аудирования, устной и письменной коммуникации. Кроме того, образовательные программы для будущих учителей (например, Lehramt, Staatsexamen) включают модули, связанные с диагностикой и методикой преподавания иностранных языков, что усиливает связь между теорией и экзаменационными практиками.

Особое значение имеет экзамен DSD II, соответствующий уровням B2–C1. Для его успешной сдачи необходимо достичь как минимум уровня B2 по всем видам речевой деятельности, что делает данный экзамен надёжным инструментом объективной оценки языковых компетенций. Число участников программы DSD II стабильно растёт: только с 2008 по 2019 год количество сдающих увеличилось с ~11 000 до ~15 000 в год. Признание DSD II в Германии как допустимого языкового документа для поступления в университеты подчёркивает его значимость для профессионального развития будущих специалистов.

Практический опыт автора также подтверждает эти выводы: в академическом лицее при Ферганском государственном университете, где автор работает с экзаменами DSD I и DSD II, более 800 учащихся успешно подтвердили свои языковые компетенции, а часть из них достигла уровня C1 и продолжила обучение в ведущих университетах Германии. Этот опыт показывает, что экзамены по иностранным языкам выполняют не только контрольную функцию, но и выступают мощным мотивационным и развивающим

инструментом, способствующим формированию профессиональной компетентности, критического мышления и педагогических качеств у будущих специалистов-лингвистов и педагогов.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARIDA BAHOLASHNING AHAMIYATI

Madaminova Yarkinoy Saparboyevna
Urganch davlat pedagogika institute

Maqolada boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitishda baholash jarayonining ahamiyati yoritilgan. Baholash nafaqat o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini aniqlash, balki ularning ijodkorligi, mustaqil ishlash qobiliyatlari va amaliy faoliyatga qiziqishlarini rag‘batlantirish vositasi sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Maqolada baholashning an’anaviy va zamonaviy turlari, shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

AI-ASSISTED GRADING IN HIGHEREDUCATION: ACCURACY, EFFICIANCY, AND FAIRNESS COMPARED TO HUMAN RATERS

Marvabonu Makhammadaliyeva Oybekovna, Abdulkhay Kosimov Akhadaliyevich
Fergana State University

This study investigates the use of artificial intelligence (AI) in higher education essay grading, emphasizing justice, validity, efficiency, and dependability. Modern AI systems are made to deliver assessments more quickly and consistently, whereas traditional hand grading is frequently laborious and subjective. Three hundred undergraduate essays were compared and evaluated by an AI system that was in line with the rubric and by qualified human raters. According to the results, AI grading performed close to human-human agreement (0.84), with a Quadratic Weighted Kappa (QWK) of 0.81 in comparison to human raters' consensus scores. Furthermore, AI shortened the grading process by almost 70%, demonstrating its effectiveness in extensive evaluation. Nevertheless, a fairness investigation showed some biases, with AI giving native speakers slightly higher marks. These results imply that AI-based grading can efficiently enable consistent, fast, and extensive evaluation in higher education when paired with teacher supervision and fairness checks.
ational psychologist, 46(4), 197-221.

BADIIY TASVIR VA IFODA VOSITALARI GRAMMATIK BILIMLARNI ANIQLASHDA QO‘LLANILADIGAN YOPIQ TEST TOPSHIRIQLARINI SHAKLLANTIRISHDA AUTENTIK MISOLLARGA TAYANISH VOSITASI SIFATIDA

Mamarasulov Umidjon G‘ulomjonovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Mazkur ilmiy maqolada nemis tili grammatik bilimlarni, xususan, sifat turlanishi, artikllar, olmoshlar va gap qurilishi kabi konstruktlarni baholashda autentik badiiy matnlardan foydalanish metodologiyasi o‘rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — test topshiriqlarining ob’ektivligini ta’minlagan holda, ularning autentiklik va ekologik validligini oshirishdan iborat. An’anaviy sun’iy gaplar o‘rniga adabiy ifoda vositalari (metafora, personifikatsiya, ironiya) ishlatilgan gaplar asosida yopiq turdagi test topshiriqlari namunalari ishlab chiqildi. Metodologik asos sifatida L. F. Bachman va A. S. Palmerning test validligi konsepsiyasiga tayanildi. Ishda badiiy tasvir vositalarining stilistik ma’nosini tahlil qilishni talab qilmasdan, faqatgina grammatik bilimlarni tekshirishni ta’minlash mexanizmlari (konstruktni izolyatsiya qilish) va yuqori sifatli distraktorlar (chalg‘ituvchi variantlar) ni tanlash prinsiplari atroflicha muhokama qilingan.

ВЛИЯНИЕ ФОРМИРУЮЩЕГО ОЦЕНИВАНИЯ НА МОТИВАЦИЮ И АКАДЕМИЧЕСКУЮ УСПЕВАЕМОСТЬ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Машарипова Садокат Абдуллажоновна
Ургенчский технологический университет РАНЧ

В статье рассматривается влияние формирующего оценивания на мотивацию и академическую успеваемость студентов высших учебных заведений. Обоснованы теоретические основы данного подхода, раскрыты особенности мотивации студентов вузов, приведены современные методы формирующего оценивания и их влияние на качество учебного процесса. Выявлены основные проблемы внедрения формирующего оценивания и предложены пути их решения. Сделан вывод о значимости формирующего оценивания для повышения эффективности высшего образования и развития ключевых компетенций

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR ORQALI TIL KOMPETENSIYASINI BAHOLASH: NEMIS VA O‘ZBEK OAV MISOLIDA YONDASHUV

Matxoliqova Nilufar Shukurillayevna
O‘zMU

Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning struktur va semantik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning OAV tilida qo‘llanish xususiyatlari yoritilgan. Xususan, frazeologizmlar orqali til kompetensiyasini baholash imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Real OAV materiallari asosida frazeologik birliklarning stilistik vazifalari tahlil qilingan. Til kompetensiyasi bugungi kunda nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika va axborot sohalarida ham dolzarb mavzulardan biridir. Mazkur kompetensiya o‘z ichiga grammatik, leksik, pragmatik va madaniy bilimlarni oladi. Ayniqsa, frazeologik birliklarni tushunish, to‘g‘ri qo‘llash va talqin eta olish — til kompetensiyasining muhim indikatoridir. OAV tili esa frazeologizmlarning tabiiy ravishda paydo bo‘ladigan muhitidir. Shu sababli, ushbu maqolada frazeologik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari va ularning OAVda qanday stilistik yuklama bilan ishlatilishi asosida til kompetensiyasini baholash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

O‘ZBEKISTONDA TA’LIM JARAYONIDA ELEKTRON BAHOLASH TIZIMLARINI JORIY ETISH TAJRIBASI

Meliboyev Zuxriddin Isroil o‘g‘li
Namangan tuman ixtisoslashtirilgan maktab

Mazkur maqolada O‘zbekistonda elektron baholash tizimlarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, ularning afzalliklari va mavjud muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari hamda umumta’lim maktablarida qo‘llanilayotgan elektron platformalar tajribasi yoritilgan. Muallif elektron baholash tizimlarini rivojlantirish istiqbollari sifatida sun’iy intellekt, adaptiv testlash, katta ma’lumotlar tahlili va gamifikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish zarurligini asoslab beradi.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ta’lim jarayonini raqamlashtirish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida elektron platformalar, onlayn testlar va masofaviy baholash tizimlariga keng e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident farmonlari va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida baholash jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

THE STRATEGIC ROLE OF ASSESSMENT IN ADVANCING EDUCATIONAL EXCELLENCE

Saodat Mirpayazova
University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan

Assessment plays a pivotal role in enhancing the quality and effectiveness of education by providing critical insights into student learning, instructional practices, and curriculum alignment. This paper explores the strategic function of assessment in driving educational excellence, focusing on its impact on learner outcomes, teacher development, and institutional accountability. Using a qualitative approach, the study synthesizes recent literature and case studies to examine formative and summative assessment practices, digital assessment tools, and policy frameworks. The findings reveal that well-designed assessment systems not only measure learning but also inform teaching, support equity, and foster continuous improvement. The paper concludes with recommendations for integrating assessment strategically to promote sustainable educational advancement.

THE ROLE OF ASSESSMENT IN IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF EDUCATION

Zamira Moldiyeva Bahodirovna
UZSWLU

This article examines the role of assessment in improving the quality and effectiveness of education. It explores theoretical foundations and practical approaches to evaluation in modern pedagogy. The study emphasizes how formative and summative assessments affect students' academic achievements, teachers' professional development, and overall institutional performance. International practices are compared with local educational reforms, highlighting opportunities to adopt innovative assessment methods. The results demonstrate that effective evaluation strategies serve not only as a tool for measuring learning outcomes but also as a mechanism for increasing motivation, ensuring fairness, and enhancing the overall efficiency of the educational process.

TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BAHOLASHNING O‘RNI

Musayev Hamzahon Zokirjon o‘g‘li, Atamirzayev Ibrohim Xakimovich
Namangan davlat universiteti

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hamda xorijiy ta`lim tizimi sifati, tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta`lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek ta`lim tizimidagi yutuqlari, ta`lim standartlari monitoring qilingan.O‘zbekistonning ayni damdagi baholashga doir yutuqlari e`tirof etilgan.

TA’LIM OLUVCHILARNING BILIM VA KO‘NIKMALARINI NAZARIY VA AMALIY METODLAR ORQALI BAHOLASH

Nabijonova Madina
Qo‘qon universiteti

Ushbu tezisda zamonaviy ta’limning dolzarb muammosi – bilim va malakalarni baholashning nazariy va amaliy usullari tahlii qilinadi. Asarda ushbu yondashuvlarning mohiyati, afzalliklari, kamchiliklari va o‘zaro bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Ta’lim jarayonida faqat nazariy bilimlarni o‘lchashning cheklovlilik jihatlari, shuningdek, amaliy baholashning ahamiyati va qiyinchiliklari yoritilgan. Ishta asosiy e’tibor ikkala yondashuvni muvozanatli uyg‘unlashtirish orqali samarali baholash tizimini yaratish zarurligiga qaratilgan. Taklif etilayotgan integratsiyalashgan model orqali o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyati va XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishni baholash imkoniyati mavjud.

HOW TO BALANCE THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES FOR ASSESSMENT

Negmatova Barnokhon Mirzakhakimova
Ibrat Creativity school

Assessment plays a central role in education, shaping how learning is measured and how students’ progress is documented. While theory provides the conceptual foundation for effective and fair evaluation, practice determines how these ideas are translated into classroom and institutional realities.

QORAQALPOQ TILIDA ESSE YOZISHDA O‘QUVCHILAR DUCH KELADIGAN QIYINCHILIKLAR VA ULARNI BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR

Niyetova Raziya Amanbaevna
Oliy talim va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakarni baholash agentligi huziridagi Ilmiy-oquv amaliy markazi,

Mazkur maqolada qoraqalpoq tili mashg‘ulotlarida esse yozish jarayonida o‘quvchilar duch kelayotgan asosiy qiyinchiliklar chuqur tahlil qilinadi. Xususan, so‘z boyligining yetishmasligi, imlo va grammatik xatolar, kompozitsion tartibsizlik, ijodkorlikning sustligi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik hamda esse baholashdagi muammolar alohida yoritiladi. Shuningdek, maqolada o‘quvchilar yozma nutqini rivojlantirishda samarali usullar, tekshiruvchilarning metodik yondashuvlari va baholash mezonlarini takomillashtirish yo‘llari ham ko‘rsatib o‘tiladi. Muallif o‘z tajribasi asosida esse yozishning didaktik ahamiyatini, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rnini tahlil qiladi.

INNOVATIVE APPROACHES TO ASSESSING STUDENTS’ SPEAKING SKILLS IN ENGLISH CLASSES

Nizomitdinova Tursunoy Akmalovna
DIUM № 62

Speaking skills assessment has long been recognized as one of the most challenging aspects of English language teaching. Traditional assessment methods often fail to capture the dynamic and multifaceted nature of oral communication. This article explores innovative

approaches to assessing students' speaking skills in English classes, examining contemporary methodologies that leverage technology, authentic communication scenarios, and learner-centered evaluation techniques. By adopting these innovative strategies, educators can create more comprehensive, fair, and motivating assessment systems that truly reflect students' communicative competence and support their language development journey.

TA’LIM SIFATINI MONITORING QILISHDA BAHOLASH MEZONLARI VA ULARNING AHAMIYATI

No‘monov Jasurbek Omonjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti

Mazkur maqolada ta’lim sifatini monitoring qilishning nazariy va amaliy jihatlari, baholash mezonlari hamda ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati atroflicha tahlil qilingan. Monitoring tizimi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam kuzatish, baholash va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu tizim orqali ta’lim sifati doimiy nazorat ostida bo‘lib, aniqlangan muammolarni bartaraf etish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, monitoring natijalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash bilan birga, ta’lim sifatini baholashning asosiy mezoni sifatida xizmat qiladi. Maqolada baholash mezonlarini aniq belgilashning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, ularning samarali qo‘llanishi orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish hamda ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlashdagi roli ilmiy asosda yoritib berilgan.

O‘QUVCHILARNING BILIM DARAJASINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

No‘monova Nodiraxon Omonjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Ushbu maqolada o‘quvchilarning bilim darajasini baholash jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlarning mazmuni, afzalliklari va ta’lim samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siri keng yoritilgan. An’anaviy baholash tizimi ko‘proq yakuniy natijani aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy baholash uslublari o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tanqidiy yondashuvlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, kompetensiyaga asoslangan ta’limda baholash jarayoni faqat bilimlarni emas, balki ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini ham o‘lchashga yo‘naltiriladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan test tizimlari, elektron portfoliolar, interfaol metodlar va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari o‘quvchilar faoliyatini yanada aniq va shaffof kuzatishga imkon

yaratadi. Tadqiqotda mazkur yondashuvlarning ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilar motivatsiyasini kuchaytirish hamda baholashda adolat va shaffoflikni ta’minlashdagi o‘rni ilmiy tahlil qilingan.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA IQTIDORNI ANIQLASH UCHUN TEST VA SO‘ROVNOMALARDAN FOYDALANISH

Norqobilova Rayxona Davlatovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning iqtidorini aniqlashda test va so‘rovnomalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Test va so‘rovnomalar orqali o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va shaxsiy qobiliyatlarini baholash yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, diagnostika jarayonining bosqichlari, metodik talablari hamda zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan vositalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

TA'LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISHDA AVTOMATLASHTIRILGAN TESTLASH VA BAHOLASH TIZIMLARI

Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi
Termiz davlat pedagogika institute

Mazkur maqolada ta’lim jarayonini raqamlashtirishda avtomatlashtirilgan testlash va baholash tizimlarining ahamiyati yoritilgan. Raqamlashtirish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tezkor va aniq baholash imkonini beradi.

Avtomatlashtirilgan tizimlarning afzalliklari sifatida tezkorlik, aniqlik, statistik tahlil qilish imkoniyati va o‘qituvchining vaqtini tejash kabi jihatlar ko‘rsatilgan. Shuningdek, ularning qo‘llanishida uchraydigan texnik va metodik qiyinchiliklar ham tahlil qilingan. Google Forms, Kahoot, Quizizz, Moodle, ProProfs Quiz Maker va ExamSoft kabi mashhur platformalar misol qilib keltirilgan. Xulosa qismida esa avtomatlashtirilgan testlash va baholash tizimlari ta’lim jarayonini raqamlashtirishning ajralmas qismi ekani ta’kidlanib, kelajakda sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari muhokama qilingan.

O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI BAHOLASHDA TEST TOPSHIRIQLARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Nurmatov Javlon Abdunabiyevich, Abduraxmanova Nilufar Ibodovna
Bilim va malakalarni baholash agentligi

Maqolada baholash tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholashga yo‘naltirilgan test topshiriqlarini shakllantirishda o‘qib tushunishning psixolingvistik xususiyatlariga asoslanish, test topshiriqlarini shakllantirish uchun matn tanlash tamoyillarini ishlab chiqish kabi masalalar: baholash jarayonida matn tanlash mezonlari, turli uslublardagi matnlarning qo‘llanishi, grafik, jadval, infogramma va diagrammalardan foydalanishning samaradorligi, o‘qib tushunish malakasini baholashga qaratilgan test topshiriqlarining psixolingvistik xususiyatlari, bosqichlari va darajalari bilan muvofiqligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari imtihonlarda foydalaniladigan test topshiriqlarini metodik jihatdan takomillashtirish, o‘qib tushunish malakasini baholashda matnlarni to‘g‘ri tanlash va test topshiriqlarini maqsadli shakllantirish, mustaqil fikrlash, mushohada qilish va hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga yo‘naltiruvchi topshiriqlarga keng o‘rin berish imtihon validligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini isbotlaydi.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA AVTOMATLASHTIRILGAN BAHOLASH TIZIMLARI

Nurmatova Aziza, M.T. Gapparova

Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi, xususan, bilim va malakalarni avtomatlashtirilgan baholashdagi imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinadi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari testlarni tekshirish, matnli javoblarni tahlil qilish, nutq va yozuvni qayta ishlash kabi funksiyalarga ega bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi baholashning aniqligi, ob’ektivligi hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish qobiliyati masalalari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda xalqaro tajribalar, metodik yondashuvlar va O‘zbekiston ta’lim tizimidagi istiqbollar ham yoritilgan.

PEDAGOGIK O‘LCHOVLARDA OBYEKTIVLIK VA ISHONCHLILIK (RELIABELLIK): ADOLATLI BAHOLASHNI TA’MINLASHNING ASOSIY MEZONLARI

Nurseytov Daniyar Milesovich
Bilim va malakalarni baholash agentligi

Ushbu ilmiy-metodologik maqola pedagogik o‘lchovlar tizimining ta’lim samaradorligini baholashdagi ahamiyatini ko‘rib chiqadi va ularning asosiy sifat mezonlari – obyektivlik va ishonchlilik (reliabellik) – tushunchalarini atroflicha tahlil qiladi. Maqolada obyektivlikning jarayon, tahlil va talqin komponentlari hamda unga erishish usullari (aniq baholash shkalalari, rubrikalar) yoritilgan. Ishonchlilik (reliabellik) o‘lchov natijalarining barqarorligi sifatida ta’riflanadi va uni aniqlashning asosiy statistik usullari (test-retest, ekvivalent shakllar, ichki mutanosiblik) keltirilgan. Shuningdek, maqola ushbu ikki mezonning validlik

(haqiqiylik) bilan bog‘liqligini muhokama qiladi va testning obyektiv va ishonchli bo‘lishiga qaramay, amaliy ko‘nikmalarni o‘lchamaganligi sababli valid bo‘lmasligi mumkinligini aniq misollar (yodlashga asoslangan testlar) orqali isbotlaydi. Xulosa qilib aytganda, maqola pedagogik baholashning adolatliligi va sifati obyektivlik va ishonchlilik kabi ilmiy asoslangan mezonlarga rioya etilishiga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

O‘rinboyeva Durdona Usmon qizi
Termiz davlat universiteti

Ushbu maqolada bilim va malakalarni baholash jarayoniga nazariy va amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi. Baholashning zamonaviy usullari, diagnostik baholash, formatif va summativ baholash turlari hamda ularning ta’lim sifati va o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, amaliy misollar orqali baholashning interaktiv va innovatsion metodlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda nazariy konsepsiyalar bilan bir qatorda real o‘quv muhitida qo‘llanilayotgan baholash vositalarining samaradorligi ham tahlil etilgan.

AN'ANAVIY (GELIOTIK) BAHOLASH USULI: NAZARIYA, AMALIYOT VA ZAMONAVIY TA'LIM KONTEKSTIDAGI O‘RNI

O‘taganova Roza Mamadiyor qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ushbu maqolada an'anaviy yoki geliotik baholash usulining nazariy asoslari, metodologik jihatlari, afzalliklari va kamchiliklari tahsil etiladi. Tadqiqotda an'anaviy baholashning zamonaviy ta'lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinib, uning standartlashtirilgan testlar, yozma va og‘zaki imtihonlar kabi asosiy shakllari ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, geliotik baholashning ob'ektivligi, ishonchliligi va samaradorligi bilan bog‘liq psixometrik jihatlar ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, garchi zamonaviy, alternativ baholash usullari rivojlanayotgan bo‘lsa-da, an'anaviy baholash o‘zining soddaligi, o‘lchanuvchanligi va keng qo‘llanilishi tufayli ta'lim tizimida muhim o‘rinni saqlab qolmoqda.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA PSIXOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATI

Oblakulov Anvar Erkinovich
Navoiy davlat universiteti

Maqolada bilim va malakalarni baholash jarayonida psixologik omillarning roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Baholash nafaqat o‘quvchining bilim darajasini, balki uning ruhiy holati, motivatsiyasi, shaxsiy xususiyatlari hamda o‘z-o‘zini baholash jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik yondashuvda baholashning adolatli, rag‘batlantiruvchi va shaxs rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi muhimligi ta’kidlanadi. Tadqiqotda baholashning motivatsiya, stress, emotsional intellekt va shaxsiy xususiyatlarga ta’siri misollar orqali yoritilgan.

ALISHER NAVOIY NASRIY ASARLARINING TURKIYADA O‘RGANILISHI VA BILIM HAMDA MALAKALARNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI

Ochilova Maftuna Shuxratovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti

Maqolada Alisher Navoiy nasriy asarlarining Turkiyada o‘rganilishi, ularning maktab va oliy ta’lim tizimidagi qo‘llanilishi hamda bilim va malakalarni baholashdagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Turkiya olimlari tomonidan Navoiy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar, qo‘lyozmalarni nashr qilish tajribasi hamda ta’lim jarayonida asarlardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, Navoiy merosining zamonaviy baholash mezonlaridagi o‘rni yoritildi.

MEHNAT MUHOFAZASI SOHASIDA BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Odilova Mushtari Odil qizi

Mazkur maqolada mehnat muhofazasi sohasida xodimlarning bilim va malakalarini baholash tizimining dolzarbligi, nazariy asoslari hamda amaliy yondashuvlari yoritiladi. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, 2025-yil 21-iyuldagi Vazirlar Mahkamasining qarori “Mehnat muhofazasi bo‘yicha xavfsizlikni boshqarish tizimi to‘g‘risida namunaviy nizom”, hamda Prezident qarori № PQ-347 (04.10.2024) asosida xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirilgan baholash mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda mavjud uslublar tahlil qilinib, zamonaviy innovatsion yondashuv sifatida raqamli platformalar, sensorli nazorat tizimlari va bulutli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari taklif etilgan. Ushbu yondashuvlar xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini aniqroq baholash, ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish hamda xalqaro ISO 45001:2018 standartlariga mos sifat menejmentini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

PEDAGOGIK O‘LCHOV VOSITALARINI ISHLAB CHIQISH VA EKSPERTIZADAN O‘TKAZISHGA QO‘YILGAN TALABLAR: METODIK TAVSIYALAR

Z.Olimbekov, A.Sulaymonov
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi

Ushbu maqolada ta’lim tashkilotlariga qabul jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik o‘lchov vositalari, xususan test topshiriqlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar, pedagogik o‘lchov vositalarini yaratish amaliyotlarni yaxshilash uchun metodik тавсиялар taqdim etiladi. Shuningdek, test topshiriqlarining sifatini oshirish, fan ekspertlari ishini samarali tashkil etish maqsadida ta’lim dasturlari, kognitiv darajalar, topshiriq matni va javob variantlarini ishlab chiqish, ekspertiza jarayoni, shaxsiy malaka va xolislik kabi muhim masalalarga e’tibor qaratildi.

SPEAKING ASSESSMENT IN THE DIGITAL AGE: CHALLENGES, INNOVATIONS AND OPPORTUNITIES

Oripova Malika Raxmonovna
Academic lyceum named after S.H. Sirojiddinov

This article explores the intricate challenges of assessing speaking skills in English language exams, examining the complex dynamics between examiner subjectivity, task design, and their profound influence on the valid measurement of a candidate's communicative competence. The backdrop of the assessment is set within the highly personal and ephemeral nature of spoken interaction, where candidates are confronted with both the psychological pressures of performance and the methodological constraints of standardized testing. Through a comprehensive analysis of rating criteria and task types, this paper illuminates the nuanced dimensions of speaking proficiency by including the interplay between analytical scales and the lived experience of the test-taker. This study seeks to reveal the interconnectedness of external testing frameworks, the uncharted territory of individual performance, and their impact on the final assessment outcome by conducting a comparative analysis of live and technology-mediated formats. Readers are presented with an opportunity to reflect upon the significant consequences of these methodological choices, encompassing the pursuit of fairness and reliability, as well as the intricate balance between quantifying language ability and capturing the authentic, fluid nature of human speech within the context of highstakes evaluation.

NEMIS TILI O‘QUVCHILARINING YOZMA VA OG‘ZAKI NUTQINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Oyatullokh Irmatov
Jahon tillari universiteti

Mazkur maqolada nemis tili o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini baholashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) mezonlariga asoslangan kommunikativ kompetensiyani baholash tamoyillari, formatif va summativ baholashning o‘zaro uyg‘unligi, shuningdek, raqamli vositalar yordamida til ko‘nikmalarini aniqlash imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda an’anaviy test tizimlaridan tashqari, portfoliolar, reflektiv yozuvlar va raqamli platformalar orqali o‘quvchilarning individual rivojlanishini baholashning samaradorligi asoslab berilgan.

TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA FORMATIF BAHOLASHNING ROLI

Qo‘chqorov Baxodirjon O‘lmasovich
Andijon davlat texnika instituti

Ushbu maqolada formatif baholashning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va uning o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga ta’siri keng yoritilgan. Formativ baholash nafaqat o‘quvchilarning mavjud bilim darajasini aniqlash, balki ularning individual rivojlanishini muntazam kuzatib borish, bilim olish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini yaratadi. Ushbu yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yib, ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, formatif baholash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi, ularning o‘z bilimiga tanqidiy qarashini shakllantiradi hamda shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan individual yondashuvni qo‘llashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda formatif baholashning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish va ularni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishdagi afzalliklari ilmiy tahlil etilgan.

KASBIY MALAKALARNI BAHOLASH METODLARI: MILLIY MALAKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDAGI USTUVOR YO‘NALISHLAR

Qo‘chqorboyev Akmaljon Maqsudali o‘g‘li
Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti

Maqola O‘zbekiston Milliy malaka tizimida kasbiy malakalarni baholash metodlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ishda test sinovlari, amaliy topshiriqlar, portfolio va kompetensiyaga asoslangan baholash usullari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, baholash metodlarini modernizatsiya qilish mutaxassislarning haqiqiy kompetensiyasini aniqlash va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Maqola Milliy malaka tizimi rivojida samarali baholash yondashuvlarini tatbiq etishning ilmiy va amaliy jihatlarini yoritadi.

TEST TEXNOLOGIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Qodirova Shaxzoda, M.T.Gapparova

Mazkur maqolada test texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, afzalliklari, kamchiliklari va takomillashtirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Testlar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini baholashda samarali vosita bo‘lishi bilan birga, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar bilan integratsiyalashganda amaliy ko‘nikmalarini ham baholash imkonini beradi. Tadqiqotda test texnologiyalarining afzalliklari, ularning cheklovlari, innovatsion yondashuvlar va xalqaro tajribalar orqali samarali qo‘llash yo‘nalishlari yoritiladi.

OLIY TALIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BILIM VA MALAKANI BAHOLASHNING O‘RNI

Qurbonmurodov Shohrux, Nazokat Muzafforova
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Ushbu ilmiy tadqiqot mohiyati shundan iboratki oliy ta’lim sohasida talabalar bilimi va o‘qituvchilar malakasini baholash mezonlari qanday darajada shakllanganligi, va mana shu mezonlar asosida baxolash jarayoninig shafof tarzda o‘tkazilishi, va undagi kamchiliklar.

Talabalar bilimini baholash orqali beriladigan rag‘batlar. O‘qituvchilar malakasini baholash mazmuni. O‘qituvchilar malakasini baholash orqali talabalar bilim salohiyatini oshirish.

TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BAHOLASHNING O‘RNI

Raimov Sherozbek Akbarjon o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda baholashning o‘rni hozirgi raqamli dunyoda jadal tus olmoqda. Barcha davlatlar o‘zlarining ta’lim sifatlarini yaxshilish uchun bor imkoniyatlardan foydalangan holda harakat qilmoqdalar. Suniy intellektning shiddat bilan kirib kelishi ta’limning sifatini ta’minlash va doimiy nazorat qilib turishgacha bo‘lgan bosqichlari integratsiya qilinishi, hattoki har tomonlama baholab berishi orqali ishchi guruhlarning ishlarini birmuncha yengillatishiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Ushbu maqoladi turli xil olimlarning qarashlari orqali o‘z fikrlarini bayon etishlari ta’lim tizimini yaxshilashga bo‘lgan qarashlari aks etgan hamda o‘zbekiston qonunchilik hujjatlaridan foydalangan holda bu mavzuga o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilingan.

TALABALARNING AXBOROT KOMPETENSIYASIGA DOIR BILIM VA KO‘NIKMALARINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Rajabova Gulrux Yusufboy qizi
Urganch innovatsion universiteti

Mazkur maqolada talabalarning axborot kompetensiyasi tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda ta’lim jarayonida bilim va ko‘nikmalarni baholashning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Axborot kompetensiyasi nafaqat talabaning o‘quv faoliyatida, balki kasbiy shakllanishida ham muhim o‘rin tutishi asoslab beriladi. Shuningdek, baholash mezonlari va indikatorlari, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi doirasida axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish metodlari haqida fikr yuritiladi.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA O‘QUVCHI/TALABALARNI RAG‘BATLANTIRISHNING O‘RNI VA ILMIY ASOSLARI

Sa’dullayev Azamat Nafiddinovich
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada ta’lim sifatini oshirish jarayonida o‘quvchilar va talabalarni rag‘batlantirishning o‘rni va unga taalluqli ilmiy asoslar tahlil qilinadi. Dunyo miqyosida amalga oshirilgan turli tadqiqotlardan olingan ma’lumotlar asosida rag‘batlantirish usullarining samaradorligi o‘rganilib, ularning ta’lim jarayoniga ta’siri diagrammalar orqali vizual tarzda tasvirlandi. Maqola o‘quvchi faolligini oshirish, motivatsiyani kuchaytirish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun rag‘batlantirish metodlarining ahamiyatini ochib beradi. Tadqiqot natijalari ta’lim sifati va o‘quvchilar yutuqlari o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH HUSUSIDA

Sadikov Yusupdjan Aripovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Tezisda til sertifikatiga ega bo‘lish uchun imtixon topshirgan talabgorlarning bilim va malakalarini baholashdagi uslublar, shaffoflik, muammolar xususida so‘z yuritiladi. Hozirgi globallashuv asrida bilimga bo‘lgan qiziqish va intilishlar, yoshlarning malakalarini aniqlash va haqqoniy baholash dolzarb bo‘lib turibdi. Bu esa o‘z navbatida talabgorlarning “Bilim va malakalarini baholash agentligi”ga katta mas`uliyatni yuklaydi. Ayniqsa, Agentlik qoshidagi tekshiruvchi-ekspertlar bu borada katta mahoratni talab qiladi. Imtixon javoblarini tekshirish, baholash asnosida har bir so‘zga, jumlaga diqqat bilan yondashishni, undagi orfagrafik va stilistik hatolarni aniqlash, to‘g‘ri xulosa chiqarish zahur bo‘ladi.

TALABALARNING KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI BAHOLASH VA MONITORING QILISH

Sadriddinova Feruza Meliyevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Bugungi ta'lim jarayonida kreativlik — nafaqat yangi bilimlarni egallash, balki ularni yangicha, noodatiy tarzda qo‘llash qobiliyati sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada kreativ fikrlash tushunchasi, uning pedagogik ahamiyati, shuningdek, baholash va monitoring usullari ilmiy tahlil qilinadi.

BAHOLASH JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

F.M. Sadriddinova, N.V.Anvarova
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Baholash jarayonida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalalari yoritilgan. Xususan, raqamli baholash tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar, gamifikatsiya elementlari hamda xalqaro tajriba misolida ta’lim sifatini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.

THE ROLE OF ASSESSMENT IN ENHANCING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF EDUCATION

Said-Akhmedova Shokhista Nuritdinovna
Samarkand state institute of foreign languages

This article provides a comprehensive analysis of how assessment practices shape the quality and effectiveness of modern education. It explores both theoretical and practical dimensions of assessment, ranging from formative and summative approaches to the use of digital tools, inclusive strategies, and data-driven decision-making. It also examines challenges in assessment implementation, including standardization, teacher competence, and equity. The article concludes with strategic recommendations to improve assessment systems and foster student-centered learning environments that promote lifelong success.

BILIM VA MALAKA – ZAMONAVIY JAMIYATNING MUHIM MEZONI

Saidova Aziza Sobirovna
Buxoro davlat texnika universiteti

Ushbu maqolada bilim va malkaning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati, ularning o‘lchanishi va baholash tizimlari, shuningdek, O‘zbekistonda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Maqolada raqamli texnologiyalar va xalqaro standartlarning ta’lim jarayoniga ta’siri, shuningdek, malakani oshirish va kasbiy rivojlanishning ahamiyati yoritilgan. Kelajak istiqbollariga ham to‘xtalib, ta’lim sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlashdagi dolzarb masalalar ko‘rib chiqiladi.

BAHOLASH JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Saidova Mahina Normahmat qizi
Termiz davlat universiteti

Ushbu maqolada baholash jarayonida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda asosan adaptiv testlar, peer (tengdoshlar) va self (o‘z-o‘zini) assessment, shuningdek, generativ sun’iy intellekt (GenAI) vositalari orqali baholash metodlari ko‘rib chiqiladi. Metod sifatida adabiyotlar tahlili, tajriba asosidagi empirik kuzatuvlar va so‘rovnomalar qo‘llanildi. Natijalarga ko‘ra, innovatsion baholash usullari o‘quvchilarning motivatsiyasi, bilim darajasi va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini yaxshilaydi. Shu bilan birga, ularning texnik, etik va metodologik cheklovlari ham mavjud. Tadqiqot asosida ta’lim muassasalarida ushbu yondashuvlarni samarali joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola zamonaviy baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvni taklif etadi.

Baholash ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini aniqlash, o‘qituvchilarga va ta’lim tizimiga yo‘naltirilgan fikr-mulohazalar berish imkonini yaratadi. An’anaviy baholash usullari (sinovlar, yozma ishlar, og‘zaki baholash) ko‘pincha o‘quvchining ko‘nikma va ijodiy salohiyatini to‘liq ko‘rsata olmaydi.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar (masalan, raqamli baholash vositalari, peer/self-assessment, loyiha asosidagi baholash, adaptiv test tizimlari, generativ sun’iy intellekt) keng tarqalmoqda. Ushbu usullar baholashni shaffofroq, haqqoniyroq, samaraliroq va o‘quvchiga yo‘naltirilgan qilishga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi - zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida baholash jarayonining samaradorligini o‘rganish, ularning afzalliklari va cheklovlarini tahlil qilish, shuningdek, kelajakda ularni tatbiq etishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Saidova Nozima Sherzodovna
TAQU TM

Mazkur tezisda bilim va malakalarni baholashda nazariy hamda amaliy yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi va ular ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Nazariy yondashuvlar asosida o‘quvchilarning bilimni egallash jarayoni tahlil qilinib, amaliy yondashuvlarda esa baholash metodlari va vositalarining real ta’limdagi qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Tezisda formativ va summativ baholashning roli hamda zamonaviy texnologiyalar asosida baholash tizimlarini joriy

etish masalalari ham yoritilgan. Xulosa sifatida, ushbu ikki yondashuvning uyg‘unligi ta’lim sifatini oshirishdagi muhim omil ekani asoslab berilgan.

ASSESSMENT TYPES

Samandarov Sherzod Sultanovich
NamDU

Baholash o‘qitish va o‘qitish jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki u o‘quvchilarning taraqqiyoti, bilim va ko‘nikmalari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Muayyan ta'lim maqsadlariga erishish uchun har xil baholash turlari qo‘llaniladi. Umuman olganda, baholash formativ va summativ turlarga bo‘linishi mumkin: formativ baholash mulohazalar va mulohaza yuritish orqali davomiy ta'limni qo‘llab-quvvatlaydi, yakuniy baholash esa o‘quv davri oxiridagi yutuqni baholaydi. Boshqa tasniflar diagnostik baholashni o‘z ichiga oladi, bu o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini o‘qitishdan oldin aniqlaydi; tegishli ta'lim darajalarini belgilaydigan baholash turi; bilim va ko‘nikmalarning amaliy qo‘llanilishini o‘lchaydigan samaradorlikka asoslangan baholash. Baholash turini tanlash maqsad, kontekst va kutilayotgan o‘quv natijalariga bog‘liq. Ushbu turlarni tushunish o‘qituvchilarga o‘rganish va baholashni qo‘llab-quvvatlaydigan samarali baholash strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

FIZIK PRAKTIKUMDA KOMPETENSIYAGA YO‘NALTIRILGAN BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Sattorova Aziza Maxmudjonovna
Navoiy davlat universiteti

Mazkur maqolada fizik praktikum mashg‘ulotlarida baholash jarayonini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Baholash jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, mezonlari va talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, Google Classroom platformasi misolida raqamli texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari va natijaviyligi ko‘rsatib berilgan. Maqolada baholashning innovatsion modellari — raqamli rubrikalar hamda o‘zaro baholash (peer assessment) tizimlarining amaliy ahamiyati tahlil qilinib, ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan baholash tizimi fizik praktikum mashg‘ulotlarining sifatini oshiradi, talabalarning raqamli fikrlash, mustaqil ishlash va kasbiy kompetentligini rivojlantiradi.

O‘QUVCHILARNING BILIM VA MALAKALARINI BAHOLASHDA OBYEKTIVLIK VA HAQQONIYLIK TAMOYILLARI

Sherqulova Mahliyo Xasan qizi
O‘zDJTU

Ushbu maqolada o‘quvchilarning bilim va malakalarini baholash jarayonida Obyektivlik va haqqoniylik tamoyillarining nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada baholashning shaffofligi, adolatliligi va aniqligi o‘rganilib, ta’lim sifatiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, Obyektiv va haqqoniy baholashni ta’minlash uchun foydalaniladigan usullar va vositalar ko‘rib chiqiladi. Ta’lim jarayonida baholashning haqiqatga yaqin, barqaror va ishonchli bo‘lishi muhimligi ta’kidlanadi.

CHALLENGES IN IMPLEMENTING CEFR-BASED ASSESSMENT IN NON-EUROPEAN CONTEXTS

Shodmonova Muhayyo Qurbonovna
O‘zbekiston davlat milliy pedagogika universiteti

The Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) has become an influential global model for describing and assessing language proficiency. However, implementing CEFR-based assessment outside Europe poses a number of challenges due to differences in educational traditions, cultural contexts, and institutional systems. This article examines the main difficulties that non-European countries face when adopting CEFR, including cultural and educational disparities, insufficient teacher training, lack of appropriate assessment tools, and limited policy support. It also suggests possible solutions such as localized adaptation, teacher professional development, and stronger institutional cooperation. The paper concludes that successful implementation of CEFR requires not only technical alignment but also contextual sensitivity and long-term policy commitment. By understanding and addressing these challenges, nonEuropean countries can benefit from the framework’s potential to improve language education quality and promote global comparability in assessment. Keywords.CEFR, language assessment, non-European contexts, implementation challenges, teacher training, educational policy, language education, localization

TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BAHOLASHNING STRATEGIK ROLI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Sobirjonova Gulnozaxon Madaminjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti

Ushbu maqolada ta’lim jarayonida baholash tizimining o‘rni, uning sifati va samaradorlikka ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy baholash uslublarining ahamiyati, shuningdek, baholash mezonlarining aniqligi va adolatliligi muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada baholash turlarining ta’lim jarayonidagi funksiyalari, o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va o‘qituvchining metodikasini takomillashtirishdagi roli yoritiladi. Tadqiqotlar asosida baholashning samarali tashkil etilishi ta’lim sifatini oshirishda qanday mexanizm sifatida xizmat qilishi ochib beriladi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA METODIK MAHORAT SOATINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHNING NAZARIY HAMDA AMALIY YONDASHUVLARI

Sobirova Nazokat Turobjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, mahorat soatlarini samarali tashkil etish hamda bu jarayonda bilim va malakalarni baholashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, baholash mezonlari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BILIMLARNI BAHOLASH TIZIMLARI

Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida bilimlarni baholash tizimlari, ularning afzalliklari va ta’lim jarayonidagi amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari keng yoritilgan. Hozirgi davrda ta’lim jarayonida an’anaviy baholash usullari o‘rnini bosuvchi onlayn platformalar,

elektron test tizimlari, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi baholash vositalari tobora keng qo‘llanilmoqda. Ular o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tezkor, shaffof va obyektiv tarzda aniqlash imkonini beradi. Raqamli baholash tizimlari yordamida o‘qituvchi katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilishi, o‘quvchilar esa o‘z natijalarini darhol ko‘rib chiqib, o‘z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu tizimlar individual ta’lim yondashuvini qo‘llab-quvvatlab, har bir o‘quvchining rivojlanish darajasini kuzatish va unga mos tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Maqolada shuningdek, raqamli baholash vositalarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni, ularning afzalliklari bilan bir qatorda duch kelinadigan muammolar, jumladan texnik jihozlanish, internet tarmog‘ining barqarorligi va pedagoglarning raqamli savodxonlik darajasi ham ko‘rib chiqilgan. Xulosa o‘rnida, raqamli baholash tizimlarini ta’lim jarayoniga keng joriy etish kelajakda o‘quv jarayonini samarali, adolatli va zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi qayd etilgan.

CAMBRIDGE APPROACH TO ASSESSMENT REFORM

Steve King
Cambridge University Press and Assessment

Cambridge has been working with the national authorities on assessment over the past year, beginning with a Diagnostic Study of Learning Assessments in Uzbekistan, Tajikistan and the Kyrgyz Republic in early 2025.

Since August 2025, Cambridge has been working on a concept for a National Assessment Framework and the unification of school exit and university entrance tests. This talk will describe some of the early results and recommendations of this work, as well as give guidance for future pathways.

ZAMONAVIY BAHOLASH YONDASHUVLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Sulaymonbekov Suhaylbek
IIV Buxoro akademik litseyi

Ushbu maqolada zamonaviy baholash yondashuvlarining ta’lim sifatini oshirish va o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Formativ baholash, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, elektron baholash va boshqa ilg‘or metodlar ta’limda individual yondashuvni shakllantirish, o‘quvchining faol ishtirokini rag‘batlantirish hamda chuqur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilayotgani yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida baholash tizimini takomillashtirish yo‘nalishidagi amaliy

natijalar ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot zamonaviy baholash metodlarining samarali tatbiqi orqali ta’lim jarayonining sifatini boshqarish imkoniyatlarini ochib beradi.

CHET TILIDA YOZISH KO‘NIKMASINI BAHOLASHDA KOHEZIA VA KOGERENTLIKNING AHAMIYATI

Tangriyeva Lobar Nasriddinovna
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi

Chet tilida yozuv ko‘nikmasini baholash jarayonida kogeziya va kogerentlik muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Kogeziya – matnda grammatik va leksik bog‘lanish vositalari orqali fikrlarni uzviy ravishda birlashtirishni ta’minlasa, kogerentlik – yozuvning umumiy mazmun va mantiqiy tuzilishini anglatadi. Ushbu ikki omil baholovchining matnni oson qabul qilishi va muallifning maqsadini to‘g‘ri tushunishiga xizmat qiladi. Tadqiqotda chet tilida yozuvni baholashda kogeziya va kogerentlikning o‘zaro bog‘liqligi, ularning baholash mezonlarida tutgan o‘rni hamda samarali yozuv ko‘nikmasini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

VR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI TA’LIM NATIJALARINI BAHOLASH METODIKASI

Temirova Rayhona Shahobiddin qizi
Oriental universiteti

Ushbu maqolada muhandislik ta’limida Virtual Reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanib ta’lim natijalarini baholashning metodologik asoslari taqdim etiladi. An’anaviy baholash usullari asosan bilimlarni sinovdan o‘tkazishga qaratilgan bo‘lsa, taklif etilayotgan VR-ga asoslangan yondashuv talabalar kompetensiyalari, qaror qabul qilish qobiliyati va immersiv muhitdagi moslashuvchanligini baholash imkonini beradi. Metodika o‘z ichiga interaktiv topshiriqlar, real vaqtli monitoring, reflektiv tahlil, o‘zaro baholash va gamifikatsiyalash elementlarini qamrab olib, ta’lim natijalarini har tomonlama o‘lchash imkonini beradi. Moodle, Blackboard, Power BI va Tableau kabi learning analytics platformalari talabalar faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda shaxsiylashtirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari, VRning SCADA va IoT tizimlari bilan integratsiyasi real sanoat sharoitlarini simulyatsiya qilish imkonini yaratib, baholash natijalarining ishonchliligini oshiradi. Mazkur yondashuv muhandislik yo‘nalishi talabalarini aniq, ko‘p qirrali va kompetensiyaga yo‘naltirilgan baholashni ta’minlab, kelajak mutaxassislarini tayyorlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

KO‘RISH IMKONIYATI CHEKLANGAN ABITURIYENTLAR VA O‘QITUVCHILARNING BILIM VA MALAKALARINI BAHOLASH HAMDA TURLI XIL SERTIFIKATLARNI OLISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARIGA BIR NAZAR

To‘ymurodov Dilshodjon Dilmurodovich
BuxDU

Ushbu maqolada ko‘rish imkoniyati cheklangan abituriyentlar va o‘qituvchilarning bilim hamda malakalarini baholash jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish huquqlarini ta’minlash, baholash tizimlarini moslashtirish hamda milliy sertifikatlash jarayonlarida ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay sharoit yaratish zaruriyati yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar, jumladan Yaponiya, Finlandiya, Buyuk Britaniya va Turkiya davlatlarida qo‘llanilayotgan inklyuziv baholash tizimlari misolida o‘zbek ta’lim tizimiga moslashtirish yo‘llari taklif etilgan. Muallif ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslarning ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, ovozli dasturlar, Braille tizimlari va adaptatsiya qilingan interfeyslardan foydalanish samaradorligini tahlil qiladi. Maqolada davlat siyosati, maxsus pedagogika yondashuvlari hamda innovatsion texnologiyalar asosida inklyuziv ta’lim sifatini oshirishning amaliy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL MUNOSABATLARINI BAHOLASH METODIKASI

Tosheva R. R., Abdullayeva A.N.
BMBA huzuridagi Ilmiy-o‘quv amaliy markaz

Mazkur maqolada ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional munosabatlarni aniqlash va rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, onlayn so‘rovnomalar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt algoritmlari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, ta’lim analitikasi hamda blokcheyn asosidagi shaffof baholash tizimlari imkoniyatlari yoritilgan. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarini baholash metodikasining bosqichlari, natijalarni talqin qilish va individual rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada maxfiylikni ta’minlash, yosh va psixologik xususiyatlarni hisobga olish hamda baholash natijalarini tarbiyaviy jarayon bilan uyg‘unlashtirish zarurligi alohida ta’kidlanadi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ ОЦЕНИВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ И ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

Тургунова Дилноза Гофуржон кизи

В статье рассматривается психологическая роль оценивания в образовательном процессе, его влияние на формирование учебной мотивации и повышение эффективности обучения. Подчеркивается, что традиционная система отметок выполняет в основном контролирующую функцию, в то время как формативное оценивание способствует развитию внутренней мотивации, самостоятельности и позитивного отношения к учебной деятельности. В исследовании, проведенном среди школьников и студентов (n = 120), выявлено, что 68% обучающихся, получавших регулярную обратную связь, демонстрировали рост уверенности в своих силах и интерес к предмету, тогда как 54% учащихся в условиях традиционной системы отмечали стресс и снижение мотивации. Полученные результаты соотносятся с теорией самодетерминации Э. Деци и Р. Райана, подтверждая значимость удовлетворения психологических потребностей личности в образовательном процессе. Практическая ценность работы заключается в возможности использования выводов педагогами и психологами для оптимизации методик оценивания и повышения качества образования.

EFFECTIVENESS OF ONLINE TESTS AND ELECTRONIC ASSESSMENT PLATFORMS: AN EVIDENCE-BASED ANALYSIS

Umaralieva Munojatkhon Mashrabovna, **Ma’rufjonova Marjona Alisher kizi**
English Language and Literature Faculty, FerSU

This article analyzes the role of online tests and electronic assessment systems in the educational process, their effectiveness and impact on student and teacher performance based on scientific sources. The studies highlight the advantages of electronic assessment - speed, objectivity, feedback opportunities and student motivation. At the same time, problems related to technical infrastructure, digital literacy and academic integrity are also analyzed.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA KOGNITIV KOMPETENTLIKNING AHAMIYATI

Umirbekova Barchin Abdurasulovna
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Ushbu maqolada bilim va malakalarni baholash jarayonida kognitiv kompetentlikning ahamiyati yoritilgan. Kognitiv kompetentlik shaxsning bilimlarni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llash qobiliyati sifatida izohlangan. Tadqiqotda nazariy va amaliy baholash yondashuvlari tahlil qilinib, keys-stadi, loyiha asosida ta’lim, trening va simulyatsiya metodlari kognitiv kompetentlikni aniqlash va rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, raqamli baholash vositalari va refleksiyaning ta’lim jarayonida qo‘llanishi kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari sifatida ko‘rib chiqilgan. Maqolada kognitiv kompetentlik nafaqat bilim va malaka hajmini, balki ularning sifatini, tizimliligini va ijodiy qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlash

MEASURING PUBLIC SPEAKING PERFORMANCE: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHER EDUCATION CURRICULA

Urinova Urazgul Boykobil kizi
Uzbekistan State World Languages University Tashkent, Uzbekistan

Public speaking is a critical professional competence for future language teachers, yet its assessment remains conceptually fragmented. This paper analyzes the theoretical foundations of communicative competence, the principles of validity in performance-based assessment, methods for identifying and addressing public speaking anxiety, and the role of technology in supporting reflective evaluation. It highlights the need for multidimensional, criterion-referenced approaches that align assessment tasks with real communicative demands in teacher education. Practical recommendations include adapting rubrics to the full range of speaking skills, embedding progressive and formative speaking tasks across programs, encouraging self- and peer-assessment to develop reflective ability, and adopting digital tools responsibly to enhance feedback while maintaining fairness and validity.

TEACHER ASSESSMENT AND STUDENT SELF-ASSESSMENT IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING

Usmonova Gulkhumor Qo‘ldashboy kizi
Namangan state university

Assessment plays a vital role in English language teaching and learning, as it not only measures students’ achievement but also shapes their motivation and autonomy. This study investigates the impact of teacher assessment and student self-assessment on English language learning among secondary school learners in Uzbekistan. The research applied a qualitative descriptive design supported by classroom observations, teacher interviews, student questionnaires, and document analysis. Results indicate that teacher feedback is most effective when combining correction with encouragement, while self-assessment practices such as rating scales, records of achievement, and peer feedback foster reflection and responsibility. The findings suggest that blended approaches integrating teacher and student roles produce higher motivation, more active participation, and measurable language improvement. The paper concludes by recommending pedagogical strategies that merge formative teacher feedback with structured self-assessment to enhance language proficiency and learner independence.

BAHOLASHNING TA’LIMDA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Usmonova Umida Baxtiyorovna
Jizzax DPU

Maqolada zamonaviy yondashuvda baholash “o‘rganish uchun baholash” prinsipiga asoslanib, raqamli vositalar (platformalar, portfolio, o‘zaro baholash) va kompetensiyaga asoslangan usullardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. Baholashda adolat, shaffoflik va individual yondashuv tamoyillari ahamiyatli hisoblanadi. Samarali baholash ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BAHOLASHNING O‘RNI

Usmonova Yulduz Abdusaid qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maqolada boshlang‘ich ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishda baholash tizimining pedagogik, psixologik, metodik hamda boshqaruviy roli keng tahlil qilinadi. Nazariy qismda baholash turlarining (diagnostik, formativ, summativ, kompetensiyaviy) mohiyati, baholashning

o‘quvchi rivojiga, o‘qituvchi faoliyatiga va ta’lim tizimi samaradorligiga ta’siri ko‘rib chiqildi. Xalqaro bo‘limda Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreya boshlang‘ich ta’lim baholash tizimlari chuqur o‘rganilib, ularning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari taklif etildi. Maqolaning oxirida amaliy tavsiyalar va siyosatga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar berilgan.

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ: МОТИВАЦИЯ, СТРЕСС И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ

Хакимова Халима Ринатовна
Университет Маъмун

В статье рассматривается влияние психологических факторов на процесс оценки знаний студентов. Акцент сделан на мотивацию, стресс, тревожность, когнитивные особенности и эмоциональное состояние учащихся, которые могут существенно влиять на результаты обучения. Анализируются психологические теории, объясняющие поведение студентов в условиях тестирования, а также практические рекомендации по снижению стресса и повышению внутренней мотивации. Приводятся примеры внедрения психологически ориентированных методов в образовательный процесс Университета Маъмуна и других высших учебных заведений.

LINGUODIDACTIC APPROACHES TO ASSESSMENT OF KNOWLEDGE AND SKILLS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Xaknazarova Luiza
Jizzakh pedagogical university, Jizzakh, Uzbekistan

This paper examines how linguodidactic principles can be applied to the assessment of knowledge and skills within the credit-module system (CMS) of higher education. Drawing on theoretical frameworks and empirical observations from English language programmes, the study explores formative and summative evaluation methods, the integration of digital tools and the alignment of assessment with learning outcomes. Findings show that linguodidactic approaches enhance transparency, objectivity and learner autonomy in assessment.

KO‘P VARIANTLI TEST TIZIMI: NAZARIY BILIMNI BAHOLASHDAN AMALIY KOMPETENSIYA INQIROZIGACHA

Xalimov Zafar Xatamovich
Impuls tibbiyot instituti Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi, “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti doktoranti

Ushbu maqola ko‘p variantli test tizimining ta’limdagi o‘rni va uning evolyutsiyasini tahlil qiladi. Tizim dastlab bilimni obyektiv va tez baholash vositasi sifatida qabul qilingan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uning amaliy ko‘nikmalar va kompetensiyalarni baholashdagi qobiliyatsizligi ta’lim sifatining yomonlashuviga sabab bo‘ldi. Maqolada testning postsovet mamlakatlari, xususan O‘zbekiston kontekstidagi paradoksal tajribasi, shuningdek, muammoli vaziyatga asoslangan o‘qitish (PBL) kabi muqobil yondashuvlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan omillar o‘rganiladi. Tahlil falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan olib borilib, test tizimining inson tafakkuriga bo‘lagan chuqur ta’siri ochib beriladi.

ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI VA UNI NAZARIY BAHOLASH YONDASHUVLARI

Xamrayeva Farida Ulug‘bek qizi
JDPU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi

Ushbu maqolada estetik madaniyatni rivojlantirish jarayonining psixopedagogik asoslari yoritilgan. Estetik madaniyat shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotida, ijodiy tafakkurida va hayotga badiiy-estetik munosabatida muhim o‘rin egallaydi. Maqolada estetik tarbiyaning nazariy jihatlari, psixologik qonuniyatlari hamda pedagogik jarayondagi metod va vositalar tahlil qilinadi.

O‘RNATILGAN TIZIMLAR FANIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BILAN TALABALARNING ISHLARINI BAHOLASH

Xasanov Umidjon Komiljon o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

Ushbu maqolada o‘rnatilgan tizimlar (Embedded Systems) ta’limida talabalarning bilim va malakalarini baholashda zamonaviy texnologiyalar va virtual laboratoriyalardan

foydalanishning afzalliklari yoritiladi. Xususan, Proteus, Tinkercad, Multisim va QEMU kabi muhitlarning ta’lim jarayonida qo‘llanishi, ularning masofaviy ta’limda samaradorligi hamda baholash jarayonini shaffof va obyektiv qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tinkercad Circuits platformasi misolida masofaviy topshiriqlarni berish, bajarilgan loyihalarni onlayn tarzda taqdim etish va avtomatlashtirilgan baholash jarayoni ko‘rib chiqiladi. Virtual laboratoriyalar yordamida talabalar qimmat apparat vositalarisiz ham mustaqil ishlash, tajribalarni qayta sinash va ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada, bunday yondashuv ta’lim sifatini oshirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHNING NAZARIY POYDEVORI VA AMALIY TATBIQI

Xasanova Diana Tagaybekovna, M.T. Gapparova

Ushbu maqolada bilim va malakalarni baholashning amaliy hamda nazariy yondashuvlarining ahamiyati yoritilgan. Nazariy yondashuvlar bilim va nazariyalarni ilmiy qoidalar orqali o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, amaliy yondashuvlar esa ushbu bilimlarni o‘quvchilarda amaliyotda qo‘llay olish uchun xizmat qiladi. Amaliy yondashuvlarda og‘zaki so‘rov, test, yozma topshiriqlar kabi metodlarning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek baholash jarayonida adolatlilik, shaffoflik, obektivlik, zamonaviy texnologiyalarini joriy etishga alohida yondashiladi. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra nazariy va amaliy yondashuvlarni muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

INGLIZ TILI O‘RGANISHDA BILIM VA KO‘NIKMALARNI BAHOLASHGA OID NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR: BOSHLANG‘ICH VA YUQORI BOSHLANG‘ICH DARAJADAGI O‘QUVCHILAR DUCH KELADIGAN MUAMMOLARNI HAL ETISH

Xo‘jamberdiyeva Rayhona
Qo‘qon universiteti

Bu izlanish ingliz tilini boshlang‘ich va yuqori boshlang‘ich (A1, A2) daraja sifatida o‘rganuvchilar eng ko‘p duch keladigan tilga oid muammolarni tadqiq etadi. Talaffuz, gramatik aniqlik va lug‘atni o‘zlashtirishga e’tibor qaratib, izlanish xususiy til o‘rgatish o‘quv markazida 20 ta o‘quvchi qatnashuvida 12 haftalik harakat tadqiqotidan foydalandi. Metodologiya talaffuz uchun minimal juft mashqlar, konteksli grammatik vazifalar va lug‘at uchun takrorlash texnikasini o‘z ichiga olgan holda maqsadli amaliy tadbirlar bilan diagnostik baholashni aralashtirdi.

Natijadan oldingi va keying ma’lumotlar so‘zlashish, yozma vazifalar va so‘z boyligini aniqlash orqali yig‘ildi. Talaffuzda ravonlik 35% dan 78% ga va so‘zlarni aktiv eslab qolinish darajasi 45% dan 82% ga yahshilanib, natijalar har sohada muhim statistik o‘sish ko‘satdi. Natijalar ikkinchi tilni o‘zlashtirishning o‘rnatilgan tamoyillariga mustahkam asoslangan tizimli, baholashga asoslangan pedagogik yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Bu izlanish ingliz tilini o‘rganishning asosiy darajalarida o‘lchanadigan o‘sishni osonlashtirish uchun rejali metodologiya muhimligini xulosa qiladi.

FORMATIVE VA SUMMATIVE BAHOLASH: O‘ZBEKISTON TA’LIMIDA YANGI DAVR SAHIFASI

Xoldorova Shahzoda Faxriddin qizi
Jizzax shahar 22-IDUM

Mazkur maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida joriy etilgan yangi formative va summative baholash yondashuvlarining ahamiyati, ularning o‘quv jarayoniga ta’siri hamda amaliy afzalliklari ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot Jizzax shahar 22-IDUMda 2023–2024-o‘quv yilidan buyon olib borilgan tajriba asosida amalga oshirilgan. Baholash jarayonida muntazam og‘zaki tahlillar, mini-testlar va refleksiya usullari qo‘llanilib, o‘quvchilarning bilim darajasini o‘z vaqtida baholash va kamchiliklarni tezda bartaraf etish imkoniyati yaratilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yangi tizim o‘quvchilarning bilim darajasi va yakuniy natijalarini sezilarli darajada oshirgan, darsda ularning faolligini kuchaytirgan hamda individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytirgan. Ushbu tajriba O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta’lim sifatini oshirish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

KENGAYTIRILGAN JAVOBNI TALAB QILUVCHI OCHIQ TEST TOPSHIRIQLARINI SHAKLLANTIRISH VA BAHOLASH

Xolmatov Shavkat Chori o‘g‘li
Bilim va malakalarni baholash agentligi Bog‘ishamol ko‘chasi 12-uy

Ta’lim sohasida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash o‘quv jarayonining muhim qismidir. Ayniqsa, Kognitiv jarayonlar va o‘quv topshiriqlari (KJOT) kabi murakkab topshiriqlarni baholashda aniq, adolatli va shaffof usullar qo‘llanilishi zarur. Kengaytirilgan javobni talab qiluvchi ochiq test topshiriqlari - bu talabalardan muayyan masala yoki vaziyatga nisbatan mustaqil, izchil va mantiqiy asoslangan javobni yozma shaklda taqdim etishni talab qiladigan baholash usuli. Ushbu topshiriqlar talabalarning quyidagi qobiliyatlarini baholashga qaratilgan:

· Ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish

· Murakkab muammolarni hal qilish
· Tangidiy fikrlash
· Bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash
· Izchil va mantiqiy mulohaza yuritish

KJOT topshiriqlari Blum taksonomiyasining yuqori pog‘onasida joylashgan tafakkur darajalarini - tahlil qilish, baholash va yaratishni baholashga imkon beradi. Bu esa ularni an'anaviy testlardan ajralib turadigan asosiy xususiyatdir.

Baholash rubrikalari bu jarayonda samarali vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Rubrikalar topshiriqlarning sifatini mezonlar asosida tahlil qilish, baholash jarayonida bir xillikni ta’minlash va talabalarga konstruktiv fikr bildirish imkonini beradi. Ushbu maqola KJOT topshiriqlarini baholashda rubrikalarning turlari, tuzilishi, afzalliklari, shuningdek, baholash jarayonidagi xatolar va ularni bartaraf etish usullarini tahlil qiladi.

МИЛЛИЙ МАЛАКАЛАР ТИЗИМИНИНГ КАСБИЙ ТАЪЛИМ ВА КАСБГА ЎҚИТИШ ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АҲАМИЯТИ

Холмухамедов Муродулло Махмудович

Мақолада малакалар Миллий тизимининг касбий таълим ва касбга ўқитишни модернизация қилишдаги аҳамият, таълим тизими билан малака тизими интеграцияси, касбий таълим ва касбга ўқитиш мазмунини белгилаш, таълим сифатини таъминлашда касбий стандарт ўрни баён этилган.

TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BAHOLASHNING O‘RNI

Xolnazarova Dilorom O‘ktamovna, Dilnoza Djurayeva Shakirjonovna
Termiz davlat universiteti

Maqolada ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda baholashning ahamiyati tahlil qilinadi. Baholash jarayoni o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ta’limdagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda o‘qituvchi faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishi yoritiladi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va zamonaviy talablarga mos kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida sifatni ta’minlash va yuqori natijalarga erishishda baholashning o‘rni beqiyosdir. Baholash nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlash vositasi, balki ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va o‘zlashtirishdagi kamchiliklarni bartaraf etishning muhim mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda an’anaviy baholash shakllari bilan bir qatorda zamonaviy baholash tizimlari ham joriy etilmoqda. Ular orqali ta’limda shaffoflik, adolat va samaradorlikka erishish, shuningdek, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash imkoniyati mavjud. Shu jihatdan, baholash jarayonini faqat natijani qayd etuvchi vosita sifatida emas, balki ta’lim sifati va samaradorligini oshiruvchi omil sifatida ko‘rish lozim.

Shuningdek, baholashning to‘g‘ri tashkil etilishi o‘qituvchining pedagogik faoliyatini takomillashtiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi va ta’lim jarayonida motivatsiyani kuchaytiradi. Demak, ta’lim samaradorligini oshirishda baholashning ahamiyati juda katta bo‘lib, uni zamonaviy metodlar asosida rivojlantirish kelajak avlodni yetuk, bilimli va raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishning muhim omillaridan biridir.

O‘QUVCHILARNING AMALIY KO‘NIKMALARINI BAHOLASH: TEXNOLOGIYA FANI MISOLIDA

Karimov Habibulla Qadambayevich
Urganch davlat pedagogika instituti

Ushbu maqolada texnologiya fani doirasida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va baholash masalalari ko‘rib chiqiladi. Amaliy faoliyatni baholashning nazariy asoslari, formativ va summativ baholash yondashuvlari, shuningdek, portfel, loyiha ishi, kuzatuv kabi usullar tahlil qilinadi. Maqolada o‘quvchilarning mehnat madaniyati, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini hisobga olgan holda baholash mezonlari ishlab chiqish zarurligi asoslanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarning faqatgina nazariy bilimlar bilan emas, balki hayotiy muammolarni hal qila oladigan, mustaqil fikrlovchi, amaliy malakaga ega, ijodkor va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanishini ko‘zlaydi. Shu bois, ta’lim jarayonining mazmuni va metodikasida tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. An’anaviy yodlash va eslab qolishga asoslangan ta’lim uslublari o‘rnini, o‘quvchining faol ishtiroki va real hayotga yaqinlashtirilgan topshiriqlar asosidagi o‘qitish shakllari egallamoqda. Ayniqsa, bu jarayonning eng muhim yo‘nalishlaridan biri — **amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni baholash tizimini takomillashtirish**dir.

Ta’limning har bir bosqichida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari baholab boriladi. Biroq, baholash faqat yakuniy natijani aniqlash vositasi bo‘lib qolmasdan, balki o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga xizmat qiluvchi, ularni faol ishtirok va refleksiya sari yo‘naltiruvchi vosita bo‘lishi zarur. Ayniqsa, **texnologiya fani**da bu yondashuv yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu fan nazariy bilimlar bilan bir qatorda, o‘quvchilarda mehnat madaniyati, kasbga yo‘naltirish, mustaqil ishlay olish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishni maqsad qiladi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilar turli xil asbob-uskunalardan foydalanadi, materiallar bilan ishlaydi, loyihalar ishlab chiqadi va yakuniy mahsulot yaratadi. Bunday faoliyatda o‘quvchining faolligi, ijodiy yondashuvi, ishning sifati, xavfsizlik qoidalariga rioya etish darajasi va yakuniy natijaga erishish bosqichlari muhim hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu fanda amaliy ko‘nikmalarni baholash an’anaviy yozma yoki og‘zaki baholashdan farqli ravishda, ko‘proq

jarayonni baholash, mahsulot sifatini tahlil qilish, loyiha asosida yondashuv kabi zamonaviy baholash shakllariga asoslanishi kerak.

